

## Yahyo payg`ambarning kelishi

**1:1** Injil, ya'ni Xudoning O`g`li - Iso Masih haqidagi Xushxabar shu bilan boshlanadi. **2** Isha'yo payg`ambarning kitobida yozilganki: "Men Sendan avval elchimni yuborarman, U Sening oldingda yo`l hozirlab yurar. **3** Cho`l-biyobonda nido yangramoqda: Xudovand yo`lini tayyorlangiz, Ravon aylangiz so`qmoqlarin! - deya". **4** Bu oyat xuddi Yahyo payg`ambarga to`g`ri keladi. U cho`lda paydo bo`lib, xalqni imonga chaqira boshladi. "Gunohlaringiz kechirilishi uchun tavba-tazarru qilinglar va suvga cho`mib imon keltiringlar", - deb e`lon qilardi. **5** Shunda butun Yahudiya yurti bo`ylab yashovchilar va barcha quddusliklar Yahyoning oldiga chiqar, gunohlariga iqror bo`lar va Yahyoning buyrug`i bilan daryoga cho`mib imon keltirar edilar. **6** Yahyo tuya junidan kiyim kiyib, beliga teridan kamar bog`lab, chigirtkayu yovvoyi asal bilan ovqatlanardi. **7** U xalqqa shunday deb e`lon qilardi: "Orqamdan mendan ham Qudratlisi kelmoqda. Men engashib Uning choriq iplarini yechishga ham arzimayman. **8** Men sizlarni suvgagina cho`mdirib yuribman, U esa sizlarni Muqaddas Ruhga cho`mdiradi".

## Isoning Xudo tomonidan tasdiqlanishi

**9** O`sha kunlari Iso Jalilaning Nosira shahridan keldi, Yahyo Uni O`rdun daryosiga cho`mdirdi. **10** Iso suvdan chiqishi bilanoq osmon ochilib, Muqaddas Ruh kaptarday uchib Isoning boshiga qo`ngani ko`rildi. **11** Osmondan esa: "Sen Mening sevikli O`g`limsan, Sendan mamnunman", - degan sado eshitildi.

## Isoning vasvasaga solinishi

**12** Muqaddas Ruh Isoni darhol cho`lga haydab ketdi. **13** Iso cho`lda qirq kun bo`lib, shayton tomonidan vasvasaga solindi. U hayvonlar bilan birga yashar, farishtalar esa Unga xizmat qilishardi. **14** Yahyo qamab qo`yilgandan so`ng, Iso Jalilaga qaytdi. U Xudoning Shohligi haqida Xushxabar tarqatdi. **15** "Vaqt-soati keldi, Xudoning Shohligi yaqinlashib qoldi. Tavba qilinglar, Injilga imon keltiringlar!" - deb e`lon qilib yurdi.

## Isoning dastlabki shogirdlari

**16** Iso Jalila ko`li bo`yidan o`tayotib, ko`lga to`r tashlab o`tirgan Simun va uning ukasi Idrisni ko`rib qoldi. Ular baliqchi edilar. **17** Iso ularga: - Mening ketimdan yuringlar, Men sizlarni inson ovchilari qilaman, - dedi. **18** Ular esa darhol to`rlarini tashlab, Isoning ortidan yurishdi. **19** Iso u yerdan bir oz nari yurgach, Zabadiy o`g`illari Yoqub va uning ukasi Yuhannoni ko`rib qoldi. Ular qayiqda to`rlarini yamab o`tirishgan edi. **20** Iso shu onda ularni ham chaqirdi. Ular esa otalari Zabadiyni ishchilar bilan qayiqda qoldirib, Isoning orqasidan yurishdi.

## Ibodatxonadan yomon ruhni quvib chiqarish

**21** Ular Kafarnahum shahriga kirib kelishdi. Juma kuni kech kirgach, Iso yahudiy ibodatxonasiga borib, ta`lim bera boshladi. **22** Xaloyiq Isoning ta`limotiga hayron qoldi. Chunki U odamlarga ulamolar kabi emas, balki qudratli kuch egasiday ta`sirchan ta`lim berar edi. **23** O`sha ibodatxonada yomon ruhga chalingan bir odam bor edi. U to`satdan qichqirib yubordi: **24** - Ey nosiralik Iso! Bizda nima ishing bor? Sen bizni halok qilgani keldingmi? Sening kimligingni bilaman, Sen Xudoning Azizisan! **25** Biroq Iso yomon ruhga do`q urib: - Jim bo`l va undan chiqib ket! - dedi. **26** Yomon ruh u odamni larzaga soldi-da, ovozi boricha baqirib, uning vujudidan chiqib ketdi. **27** Hammani vahima bosdi. O`zaro fikr yuritib: - Bu nima gap? Bu qanaqa yangi ta`limot ekan? U yomon ruhlarga ham qudrat bilan buyuradi, ruhlar esa Unga bo`ysunadi! - deyishdi. **28** Shunday qilib, Iso haqidagi shov-shuv tezda butun Jalila yurtiga yoyilib, yon-atrofga ovoza bo`ldi.

## Isoning ko`plarni sog`aytirishi

**29** Ibodatxonadan chiqqan hamon Iso O`zi bilan Yoqub va Yuhannoni olib, Simun va Idrisning uyiga borishdi. **30** Simunning qaynonasi isitmalab yotgan edi. U haqda Isoga aytib qolishdi. **31** Iso ayolning yoniga borib, qo`lidan ushlab ko`tardi. Shu zahoti isitma tushdi va ayol xizmatga tutindi. **32** Quyosh botib, kech kirgan paytda, barcha kasallar va jinga chalinganlarni Isoning oldiga olib kela boshlashdi. **33** Butun shahar aholisi

eshik oldiga yig`ilib qoldi. **34** Iso talay dardu illatlardan qiynalganlarni sog`aytirdi. Ko`p jinlarni quvib chiqardi, ularning so`zlashiga esa imkon bermasdi. Chunki jinlar Isoning Masihligini bilar edilar.

### Isoning voizlik va shifokorlik safari

**35** Ertalab Iso juda barvaqt turdi va shahardan tashqariga, xilvat joyga borib, ibodat qildi. **36** Simun va uning jo`ralari Isoning orqasidan borishdi. **37** Isoni topib: - Hamma Seni izlayapti-ku! - deyishdi. **38** Iso ularga: - Yaqin atrofdagi qishloq va shaharlarga boraylik, Men u yerlarda ham voizlik qilayin, chunki Men ana shu maqsad uchun kelganman, - dedi. **39** Shunday qilib, Iso butun Jalila yurtini kezib chiqib, mahalliy ibodatxonalarda voizlik qilar va jinlarni quvib chiqarar edi.

### Isoning moxovni sog`aytirishi

**40** Bir moxov Isoga yaqinlashib, Uning oldida tiz cho`kkancha yalindi: - Agar istasang, meni moxovlikdan pok qila olasan. **41** Isoning unga rahmi kelib, qo`lini uzatdi va unga tegizib: - Istayman, pok bo`l! - deb qo`ydi. **42** Buni aytar-aytmas, u odamning moxovligi arib, pok-pokiza bo`lib ketdi. **43** Iso esa unga jiddiy tanbeh berib: **44** - Menga qara! Hech kimga hech narsa aytma, lekin borib ruhoniya ko`rin va sog`ayganingni tasdiqlat, bundan dalolat bo`lishi uchun Muso payg`ambar buyurgan qurbonliklarni keltirib ber, - dedi-da, uni darhol jo`natib yubordi. **45** U kishi chiqiboq, ro`y bergan hodisa haqida hamma yoqqa e lon qila boshladi. Natijada Iso endi biror shaharga ochiq kirolmaydigan bo`lib qoldi. U shahardan tashqarida, xilvat joylardagina bo`lardi. Shunga qaramay, xaloyiq har tomondan Uning oldiga kelar edi.

### Isoning sholni sog`aytirishi

**2:1** Bir necha kundan keyin Iso yana Kafarnahum shahriga keldi. Uning uyda ekanligi ma lum bo`lgach, **2** tezda ko`p xaloyiq to`plandiki, hatto eshik oldida ham joy qolmadi. Iso esa xalqqa Xudoning so`zini aytardi. **3** Shu orada to`rt kishi ko`tarib kelayotgan bir shol odamni Uning oldiga olib kelishdi. **4** Xalq ko`pligidan Isoga yaqinlashish imkonini topolmay,

ular Iso o`tirgan uyning tomini teshib tuynuk ochishdi va sholni to`shagi bilan tushirishdi. **5** Iso ularning ishonchini ko`rib, sholga: - Bolam, gunohlaring kechirildi, - dedi. **6** Bu yerda ba`zi ulamolar o`tirgan edilar. Ular o`zlaricha: **7** “Nega U bunday shakkoklik qilyapti? Gunohlarni yolg`iz Xudodan boshqa kim ham kechira oladi?” - deb o`ylar edilar. **8** Iso shu onda ularning mulohazalarini ruhan payqab, ularga dedi: - Nega sizlar dillaringizda bunday mulohaza qilyapsizlar? **9** Nima osonroq? Sholga: “Gunohlaring kechirildi”, deb aytishmi, yoki: “O`rningdan tur, to`shagingni olib yur”, deb aytishmi? **10** Lekin Inson O`g`lining yer yuzida gunohlarni kechirish qudrati borligini ham bilib qo`yinglar! U shunday dedi-da, sholga qarab: **11** - Senga aytaman, o`rningdan tur, to`shagingni olu, uyingga ket! - dedi. **12** Shol shu ondayoq o`rnidan turib ketdi-yu, to`shagini ko`tarib, hammaning ko`z oldida chiqib ketdi. Barcha hayratga tushdi. - Biz hech qachon bunday holni ko`rmagan edik! - deb Xudoni olqishlar edilar.

### Isoning Leviyni chaqirishi

**13** Iso yana ko`l bo`yiga chiqdi. Tumonat xaloyiq Uning oldiga to`plandi. Iso ularga ta`lim berdi. **14** U yerdan o`tayotib, Iso soliq yig`adigan joyda o`tirgan Alfey o`g`li Leviyni ko`rib qoldi. - Mening orqamdan yur! - dedi unga Iso. Leviy esa o`rnidan turib, Isoning orqasidan ergashdi. **15** Keyin Iso Leviyning uyida mehmon bo`lib o`tirdi. Iso va shogirdlaridan boshqa ko`p soliqchilar va har xil gunohkor odamlar ham yeb-ichib o`tirardi. Bular singari Isoga ergashuvchi odamlar ko`p edi. **16** Iso soliqchilar va gunohkorlar bilan birga yeb-ichib o`tirganini ulamolar va farziylar ko`rib, Uning shogirdlariga: - Bu qanday gap? U soliqchilaru gunohkorlar bilan birga yeb-ichib o`tiribdi-ku! - deyishdi. **17** Iso buni eshitib, shunday javob berdi: - Sog`lar emas, bemorlar tabibga muhtojdir. Men taqvodorlarni emas, gunohkorlarni tavbaga chaqirgani kelganman.

### Ro`za tutish haqida savol

**18** Yahyoning ham, farziylarning ham shogirdlari ro`za tutayotgan edilar. Ular Isoning yoniga kelib: - Nega Yahyoning shogirdlari va farziylarning

shogirdlari ro`za tutadi-yu, Sening shogirdlaring tutmaydi? - deb so`rashdi. **19** Iso ularga dedi: - Kuyov davrada bo`lgan vaqtda to`y ahli ro`za tuta olarmikin? Yo`q, kuyov ular bilan birga bo`lguncha, ro`za tuta olmaydilar. **20** Biroq kuyov ulardan judo bo`ladigan kunlar keladi, ana o`shanda ro`za tutadilar. **21** Hech kim yangi matodan yamoq qilib, eski kiyimga solmaydi. Aks holda, yangi yamoq eski kiyimdan so`kilib ketadi va yirtiq battar yomon bo`ladi. **22** Shuningdek, hech kim yangi sharobni eski meshga quymaydi. Aks holda, yangi sharob meshni yirtadi, sharob to`kiladi va mesh ham nobud bo`ladi. Illo, yangi sharobni yangi meshga quymoq darkor.

### Dam olish kuniga rioya qilish haqida

**23** Bir shanba kuni Iso g`alla dalasidan o`tayotgan edi. Uning shogirdlari yo`l-yo`lakay boshhoqlarni uza boshlashdi. **24** Buni ko`rgan farziylar Isoga: - Qara, nega ular dam olish kunida taqiqlangan ishni qilishyapti? - deyishdi. **25** Iso ularga dedi: - Nahotki sizlar Dovud bilan hamrohlari och qolib muhtoj bo`lganda nimalar qilishganini hech qachon o`qimagan bo`lsangiz? **26** Dovud oliy ruhoni Aviyatar zamonida Xudoning uyiga kirib, faqat ruhoniylargina yeyishi mumkin bo`lgan baxshida nonlarni yeb, hamrohlariga ham bergan edi. **27** Keyin Iso davom etdi: - Inson dam olish kuni uchun emas, balki dam olish kuni inson uchun yaratilgan. **28** Binobarin, Inson O`g`li dam olish kunining ham hokimidir.

### Iso qo`li shol odamni davolashi

**3:1** Iso yana ibodatxonaga kirdi. U yerda qo`li shol bir odam bor edi. **2** U bu odamni dam olish kunida ham sog`aytirarmikan, deb Isoni zimdan kuzatib turishdi. **3** Iso qo`li shol odamga: - O`rtaga chiq! - dedi. **4** So`ng xaloyiqdan so`radi: - Dam olish kunida yaxshilik qilish lozimmi yoki yomonlik? Jonni xalos qilish kerakmi, yoki halok? Ular esa indamadi. **5** Iso odamlarning bunday bag`ri toshligidan qayg`urib, atrofga g`azab bilan qaragancha, u odamga: - Qo`lingni uzat! - dedi. U odam qo`lini uzatishi bilanoq, tuzalib ketdi. **6** Farziylar esa darrov tashqariga chiqib, Isoni halok qilish chorasini topmoq uchun Hirodchilar bilan til biriktirishdi.

## Ko`l bo`yidagi olomon

**7** Iso shogirdlari bilan ko`l tomon jo`nadi. Jalila va Yahudiyadan chiqqan katta bir olomon Unga ergashardi. **8** Quddus va Idumeyadan, O`rdun naryog`idagi yurtlardan, shuningdek, Tir va Sido`n sohillaridan kelgan tumonat xaloyiq Isoning qilayotgan ishlarini eshitib, Uning oldida tirband bo`lib qolgan edi. **9** Iso odam ko`pligidan siqilib qolmay, deb shogirdlariga qayiq tayyorlab qo`yishni aytdi. **10** Chunki ko`plar shifo topayotgan edi va hamma dardlilar qo`l tegizish ilinjida Iso tomon yopirilar edilar. **11** Yomon ruhlar esa Isoni ko`rgan paytda Uning oldiga yiqilib: “Sen Xudoning O`g`lisan”, - deb baqirib yuborishardi. **12** Ammo Iso O`zini oshkor qilib qo`ymasliklari uchun ruhlarni qattiq tanbehlab qo`yardi.

## Iso o`n ikki shogirdini tanlashi

**13** Shundan so`ng Iso toqqa chiqib, shogirdlaridan O`zi istaganlarini yoniga chaqirdi. Ular kelgach, **14** Iso ularni voizlik qilishga, kasallarni sog`aytirish va jinlarni quvib chiqarishga yubormoqchi bo`lib, kuch-qudrat egasi qildi. Iso doim O`zi bilan birga bo`lish uchun quyidagi o`n ikki shogirdini tayinladi: **16** unga Butrus deb laqab qo`ygan Simun, **17** Bani-ragash, ya`ni “Momaqaldiroq o`g`illari” deb laqab qo`ygan Zabadiy o`g`illari Yoqub va Yuhanno, **18** yana Idris, Filip, Bartolmey, Matto, To`ma, Alfey o`g`li Yoqub, Taddey, vatanparvar Simun **19** va Isoga xiyonat qilgan Yahudo Ishqariyot.

## Iso va shayton

**20** Shundan so`ng uyga keldilar. Yana shunchalik ko`p xaloyiq to`plangan ediki, hatto non yeyishga vaqtlari bo`lmadi. **21** Isoning yaqinlari buni eshitib, - U aqldan ozib qolibdi, - deb olib kelishga bordilar. **22** Quddusdan kelgan ulamolar esa: - Uni shayton urgan, U ins-jinslarning boshlig`i shayton kuchi bilangina jinlarni quvib chiqaryapti, - deyishdi. **23** Shunda Iso ularni yoniga chaqirib, masal bilan so`zlay boshladi: - Qanday qilib shayton shaytonni quvib chiqara oladi? **24** Agar bir podshohlik o`z ichidan bo`linib ketsa, u podshohlik turolmaydi. **25** Bir xonadon o`z

ichidan bo`linib ketsa, u xonadon turolmaydi. **26** Agarda shayton o`z-o`ziga qarshi chiqib bo`lingan bo`lsa, u tura olmaydi, balki uning kuni bitadi. **27** Hech kim uyning egasi bo`lgan kuchli kishini avval bog`lab qo`ymasdan turib, uning uyiga kirib, mol-dunyosini o`g`irlab ketolmaydi. Faqat shunday qilibgina uyni talash mumkin. **28** Sizlarga chinini aytayin: odam bolalarining qilgan barcha gunohlari va aytgan barcha kufriklari kechiriladi. **29** Lekin kim Muqaddas Ruhni kufr etsa, abadiy kechirilmaydi, u abadiy jazoga mahkum bo`ladi. **30** Iso bu so`zni, “Uni jin uribdi”, - deganlari sababli aytdi.

### Isoning onasi bilan ukalari

**31** Isoning onasi bilan ukalari kelib qolishdi. O`zlari uyning tashqarisida kutib turib, Isoni chaqirib kelish uchun odam yuborishdi. **32** Isoning atrofida xaloyiq tirband edi. Ular Unga: - Mana, onang, ukalaring va singillaring tashqarida kutib, Seni so`rayaptilar, - deyishdi. **33** Iso ularga javoban: - Mening onam va ukalarim kim? - dedi. **34** So`ngra atrofida o`tirganlarga nazar solib dedi: - Mana, Mening onam va ukalarim! **35** Kimda-kim Xudoning irodasini bajo keltirsa, u Mening ukam, singlim, onam bo`ladi.

### Urug` sepuvchi haqida masal

**4:1** Iso yana ko`l bo`yida ta`lim berishni boshladi. Oldiga bir talay odam yig`ilib qolgach, Iso ko`ldagi qayiqqa tushib o`tirdi. Butun xaloyiq esa ko`l qirg`og`ida, quruqlikda qoldi. **2** Iso masal orqali xalqqa ko`p nasihatlar qildi. O`z ta`limotida shunday dedi: **3** “Quloq solinglar! Urug` sepuvchi urug` sepgani chiqibdi. **4** Urug` sepayotganda ba`zi urug`lar yo`l yoqasiga tushibdi. Qushlar uchib kelib, urug`larni cho`qib ketibdi. **5** Ba`zi donlar tuprog`i kam toshloqqa tushibdi. Tuproq chuqur bo`lmaganidan, urug`lar tez ko`karib chiqibdi. **6** Biroq quyosh chiqqach, so`lib, ildizi bo`lmagani uchun qurib ketibdi. **7** Boshqa urug`lar tikanlar orasiga tushibdi. Tikanlar o`sib, urug`larni bo`g`ib qo`yibdi va ular hosil bermabdi. **8** Yana boshqa urug`lar esa yaxshi yerga tushibdi va unib-o`sib,

o`ttiz, oltmish va hatto yuz barobar ko`p hosil beribdi”. **9** Keyin Iso ularga: “Kimning eshitar qulog`i bo`lsa, eshitsin!” - dedi.

### Masallarning hikmati

**10** Xalq ketib, Iso yolg`iz qolgach, U bilan yuruvchilar va o`n ikki shogirdi boyagi masal haqida alohida so`radilar. **11** Iso ularga dedi: “Xudo Shohligining siri sizlarga nasib etgan. Tashqaridagilarga esa hamma narsa masallar bilan uqtiriladi. **12** Shunday qilib, ularga qaratilgan bu oyat bajo kelmoqda: “Ular qarab turib, ko`rmaslar, Eshitib turib, anglamaslar. Aks holda tavba-tazarru qilur Va gunohlaridan forig` bo`lur edilar””.

### Urug` sepuvchi haqidagi masalning mohiyati

**13** “Bu masalni tushunmayapsizlarmi? - dedi ularga Iso. - Unday bo`lsa, barcha masallarni ham qanday qilib tushunasizlar? **14** Mana, urug` sepuvchining sepgani - Xudoning kalomidir. **15** Yo`l yoqasiga tushgan urug` shunday odamlarni bildiradi: ularning yuragiga ilohiy kalom sepiladi. Biroq ular eshitgan hamon shayton kelib, qalblariga sepilgan kalomni o`g`irlab ketadi. **16** Toshloqqa tushgan urug` esa shunday odamlarni bildiradi: ular kalomni eshitar-eshitmas, sevinch bilan qabul qilaveradilar. **17** Lekin ular ildizi yo`q beqaror odamlardir. So`ngra kalom tufayli qayg`u yoki quvg`inga duchor bo`lishsa, tezda vasvasaga tushib qoladilar. **18** Yana boshqalar tikanzorga tushgan uruqqa o`xshaydilar. Ular Xudoning kalomini eshitadi-yu, **19** lekin bu dunyoning tashvishlari, boylikka o`chlik va boshqa havaslar ularning yuraklariga suqilib kirib, kalomni bo`g`ib qo`yadi, kalom esa samarasiz qoladi. **20** Yaxshi tuproqqa tushgan urug` bo`lsa, kalomni eshitib, qalbiga jo qilgan odamlarni bildiradi. Ular goh o`ttiz, goh oltmish, goh yuz barobar ko`p samara beradilar”.

### Ilohiy nurni tan olish haqida

**21** Iso ularga yana dedi: “Shamni olib kelib, idishning yoki chorpoynaning tagiga qo`yadimi? Aksincha, shamdonga qo`ymaydimi? **22** Xuddi shu singari, oshkora bo`lmaydigan hech qanday sir yo`q, sirtga chiqmaydigan



hech yashirin narsa yo`q. **23** Kimning eshitar qulog`i bo`lsa, eshitsin!” **24** Keyin ularga yana dedi: “Eshitayotganlaringizni qulog`ingizga quyib oling! Siz qanday o`lchov bilan o`lchasangiz, xuddi shunday o`lchov bilan sizga ham o`lchab beriladi. Siz, tinglayotganlarga esa qo`shib ham beriladi. **25** Kimda bor bo`lsa, unga yana beriladi. Kimda yo`q bo`lsa, bor bo`lgani ham tortib olinadi”.

### Injilning yoyilishi va ta`hiri haqida

**26** Iso yana dedi: “Xudoning Shohligi yerga urug` sepkan odamga o`xshaydi. **27** Kechasi bo`ldimi, uxlaydi, kunduzi bo`ldimi, turadi. Urug`ning qanday unib-o`sayotganidan u bexabar. **28** Yer o`z-o`zidan avval ko`katni, so`ngra boshqni, undan keyin boshqdag to`liq donni undiradi. **29** Hosil pishgach, yig`im-terim vaqti keldi, deb darhol o`roq soladi”. **30** Iso yana dedi: “Xudo Shohligini nimaga o`xshataylik? Uni qanday masal bilan ifodalasak bo`ladi? **31** Mana, Xudoning Shohligi bir xantal doniga o`xshaydi: u yerga sepilganda, yer yuzidagi barcha urug`lardan kichik bo`ladi. **32** Lekin sepilgandan keyin ko`karadi va barcha ko`katlardan baland bo`lib o`sadi. U ulkan shoxlar chiqaradiki, osmondagi qushlar ham uning panohida uya quradilar”. **33** Shunday qilib, Iso xalqning eshitish imkoniga qarab, bu singari ko`pgina masallar orqali Xudo kalomini o`rgatar edi. **34** Masalsiz ularga gapirmas edi. Shogirdlari bilan tanho qolganda esa, ularga hammasini ochiq tushuntirar edi.

### Isoning bo`ronni tinchitishi

**35** O`sha kuni kechqurun Iso shogirdlariga: - Narigi qirg`oqqa suzib o`taylik, - dedi. **36** Ular xaloyiqni jo`natib, Isoni o`tirgan qayig`ida olib ketishdi. Isoning ketidan boshqa qayiqlar ham suzib keldi. **37** Shu orada ko`lda kuchli bo`ron ko`tarildi. To`lqinlar qayiqni tebratib yubordi, qayiq suvga to`la boshladi. **38** Iso esa qayiqning quyruq tomonida yostiqa bosh qo`yib, uxlab yotgan edi. Shogirdlar Isoni uyg`otib: - Ustoz, biz halok bo`lyapmiz! Parvo qilmaysanmi? - deyishdi. **39** Shunda Iso turib, shamolga do`q urdi va ko`lga: - Jim bo`l, bas qil! - deb qo`ydi. Shu onda shamol tindi va chuqur sukunat bo`ldi. **40** Iso shogirdlariga: - Nega

bunday qo`rqoqsizlar? Qanday qilib haligacha ishonchingiz yo`q? - dedi. **41** Ular esa juda qo`rqib, bir-biriga: - Bu qanaqa kishiki, shamol ham, ko`l ham Unga bo`ysunsa? - deyishdi.

### Iso yovuz ruhli odamni sog`aytirishi

**5:1** Ko`lning narigi qirg`og`idagi Gadara yurtiga yetib kelishdi. **2** Iso qayiqdan tushishi bilanoq, yovuz ruhga chalingan bir odam qabrlar orasidan chiqib, Uni qarshiladi. **3** Turar joyi qabriston bo`lgan bu odamni hech kim hatto zanjir bilan ham bog`lay olmas edi. **4** Ko`p martaba uni kishanu zanjirlar bilan bog`lagan bo`lsalar-da, ammo u zanjirlarni uzib, kishanlarni ham sindirib tashlar edi. Uni tiyish uchun hech kimning kuchi yetmas edi. **5** Doimo, kechayu kunduz qabrlarda, tog`larda baqirib yurar, o`zini toshlarga urib jarohatlar edi. **6** U Isoni uzoqdan ko`rib, yugurib keldi-da, Unga ta`zim qilib, **7** ovozi boricha baqirdi: - Ey Iso, Xudoyi Taoloning O`g`li! Men bilan nima ishing bor? Xudo haqi Senga yolvoraman, meni qiynama! **8** Chunki Iso unga: “Ey yovuz ruh, bu odamdan chiqib ket!” - deb buyurgan edi. **9** Iso undan so`radi: - Isming nima? - Ismim Tumonat, chunki bizlar ko`pchilikmiz, - javob berdi u. **10** O`zlarini bu yurtdan tashqariga haydab chiqarmasligini Isodan ko`p yolvorib so`radi. **11** O`sha tog`ning yon bag`rida katta to`ng`iz podasi o`tlab yurgan edi. **12** Hamma ruhlar Isoga yolvorib: - Bizni shu to`ng`izlarga yuborgin, ularga kiraylik, - deyishdi. **13** Iso ularga ruxsat berdi. Yovuz ruhlar esa shu zahoti u odamdan chiqib, to`ng`izlarga kirib olishdi. Ikki mingga yaqin to`ng`iz podasi tik qiyalikdan ko`lga yopirilib, g`arq bo`ldi. **14** Shunda to`ng`iz boquvchilar to`rt tomonga to`zib, shahar va qishloqlarda bu bo`lib o`tgan hodisani gapirib berishdi. Aholi esa buni ko`rgani borib, **15** Isoning oldiga yig`ilishdi. Ilgari tumonat jin qamragan odamni kiyingan va aqli raso holda o`tirganini ko`rib, qo`rqib ketishdi. **16** Voqeani ko`rganlar esa haligi odam jindan qanday qutulgani va to`ng`izlar bilan nima ro`y bergani haqida xalqqa so`zlab berishdi. **17** Shunda yerli xalq Isodan o`z yurtlari chegarasidan chiqib ketishni iltimos qildi. **18** Iso qayiqqa tushdi. Jindan qutulgan odam Isoga ergashish uchun ruxsat so`radi. **19** Lekin Iso rozilik bermadi. - O`z uyingga bor, Rabbing senga nimalar qilganini, qanday rahm-shafqat ko`rsatganini o`z yaqinlaringga

gapirib ber, - dedi unga. **20** Shunda u kishi borib, O`nkent viloyatida Iso o`ziga nimalar qilganini targ`ib qila boshladi. Hamma ham hayratga tushdi.

### Tirilgan qiz, sog`aygan ayol

**21** Iso ko`lning berigi bo`yiga suzib o`tib, qirg`oqda turardi. Uning oldiga yana ko`p xaloyiq to`plandi. **22** Yahudiy jamoa boshlaridan Yair ismli bir kishi kelib qoldi. U Isoni ko`rib, Uning oyoqlariga o`zini tashladi-da: **23** - Qizim o`lim to`shagida yotibdi. Kelib unga qo`lingni tegizgin, u sog`ayib tirik qolsin, - deb yalinib-yolvordi. **24** Iso u bilan ketdi. Uning orqasidan ko`p xaloyiq ergashib, Uni siqib qo`yar edi. **25** U yerda o`n ikki yildan beri qon ketishidan azob chekayotgan bir ayol ham bor edi. **26** U ko`p tabiblardan ko`p qiynalib, butun mol-mulkini sarf etgani bilan hech foyda ko`rmagan, aksincha, ahvoli yanada og`irlashib ketgan edi. **27** Ayol Iso haqida eshitdiyu, xaloyiq o`rtasida orqa tomondan Unga yaqinlashib, kiyimiga qo`l tegizdi. **28** U o`zicha: "Agar kiyimiga bir tegib olsam bas, sog`ayib ketaman", - deb o`ylagan edi. **29** U shunday qilishi bilanoq, qon ketishi to`xtadi. Ayol kasallikdan forig` bo`lganini o`z tanasida his etdi. **30** Iso esa shu onda O`zidan bir kuch chiqqanligini payqadi. U atrofidagi xaloyiqqa ko`z yugurtirib: - Mening kiyimimga kim tegdi? - dedi. **31** Shogirdlari Unga: - Xaloyiq Seni siqib turganligini ko`ryapsan-ku va tag`in kiyimimga kim tegdi, deb so`rayapsanmi? - deyishdi. **32** Lekin Iso buni qilgan ayolni ko`rish uchun atrofga qarar edi. **33** Ayol o`ziga nima bo`lganini bilib, qo`rqib va qaltirab keldi, Isoning oyoqlariga o`zini tashlab, butun haqiqatni Unga so`zlab berdi. **34** Iso unga: - Qizim, ishonching seni qutqardi. Eson-omon borib, dardingdan forig` bo`lgil, - dedi. **35** Iso shunday deb turgan ham ediki, jamoaboshining uyidan odamlar kelib unga: - Qizingiz o`ldi, nega yana Ustozni ovora qilyapsiz? - dedilar. **36** Iso bu so`zlarni eshitib, jamoaboshiga: - Qo`rqma, faqat ishongin, - dedi. **37** Iso hech kimning ergashishiga yo`l qo`ymay, faqat Butrus, Yoqub va uning ukasi Yuhannoni olib ketdi. **38** Jamoaboshining uyiga yetganlarida, yig`i va dod-faryod to`la bir qiy-chuvga duch kelishdi. **39** Iso ichkariga kirib: - Nega qayg`uryapsizlar, nega yig`layapsizlar? Qizcha o`lgan emas, u uxlab yotibdi, - dedi. **40** Ular esa Uning ustidan

kulishdi. Iso hammani tashqariga chiqarib yubordi, qizchaning ota-onasi va shogirdlarini olib qoldi va qizcha yotgan xonaga kirdi. **41** Qizchaning qo`lidan ushlab unga: - Talifa qumi! - dedi. Bu so`zning tarjimasi: “Qizim, senga aytaman: o`rningdan tur!” demakdir. **42** O`n ikki yashar qizaloq shu onda o`rnidan turib, yura boshladi. Buni ko`rganlarning aqli shoshdi. **43** Iso: - Buni hech kim bilmasin, - deb ularga qat`iy buyurdi va qizchaga ovqat berishlarini aytdi.

### Isoning O`z yurtida rad qilinishi

**6:1** Iso u yerdan jo`nab, O`z yurtiga bordi. Shogirdlari ham Uning orqasidan ergashib kelishdi. **2** Shanba kuni bo`lgach, Iso ibodatxonada ta`lim bera boshladi. Uni tinglayotganlarning ko`pchiligi hayratga tushib: - Bular Unga qayerdan nasib bo`lgan ekan? Unga bunday donolikni kim berdi? Qanday qilib Uning qo`li orqali bunaqa mo`jizalar sodir bo`lyapti? **3** Maryamning o`g`li, Yoqub, Yusuf, Yahudo va Simunning akasi duradgor Iso bu emasmi? Uning singillari ham mana shu yerda, o`z oramizda turibdi-ku! - deyishdi. Va g`ashlanib, Isoni rad qilishdi. **4** Iso ularga: - Payg`ambar o`z vatanidan, o`z qarindosh-urug`lari va uyidan boshqa yerda e`tiborsiz qolmas, - dedi. **5** Iso u yerda hech qanday mo`jiza yaratolmadi. Faqatgina bir muncha bemorlarga qo`l tegizib, ularni sog`aytirdi. **6** Ularning imonsizligiga ajablandi. Shundan so`ng Iso atrofdagi qishloqlarda kezib ta`lim berardi.

### O`n ikki shogirdni xizmatga yuborish

**7** O`n ikki shogirdini yoniga chaqirib, ikkita-ikkitan qilib jo`natmoqchi bo`ldi. Ularga yovuz ruhlar ustidan hokimlik qilish uchun qudrat berdi. **8** Ularga buyurib: “Yo`l uchun yolg`iz hassadan boshqa hech narsa - to`rva ham, non ham, kamarlaringga mis chaqa ham olmanglar, **9** balki oddiygina choriq kiyib, ikki sidra kiyim esa kiyimanglar”, - dedi. **10** Iso yana dedi: “Agar biron joyda biron uyga kirsangizlar, u yerdan chiqishingizgacha o`sha uyda qolinglar. **11** Agar biron joy odamlari sizni qabul qilmasa va sizga quloq solmasalar, u yerdan chiqayotganingizda ularga ogohlantirish tariqasida oyoqlaringizdan changni qoqib ketinglar.

Sizlarga chinini aytayin, qiyomat kunida u shahardan ko`ra Sado`m va G`amo`ra shaharlarining holi yengilroq bo`ladi. ” **12** Shunda shogirdlar yo`lga tushib, xalqni tavba qilishga undab yurishdi. **13** Ko`p jinlarni quvib chiqarishdi va ko`p kasallarga yog` surtib ularni sog`aytirishdi.

### Yahyo payg`ambarning boshini olish

**14** Isoning nomi el og`ziga tushib qolgan edi. Podshoh Hirodning qulog`iga ham mish-mishlar yetganda, u: - Yahyo payg`ambar tirilib kelibdi. Shuning uchun bu Kishi orqali bunday ajoyibotlar sodir bo`lmoqda, - dedi. **15** Boshqalar esa Uni Ilyos payg`ambar deb hisoblasa, yana boshqalar Uni qadimgi payg`ambarlar qatorida bir payg`ambar derdilar. **16** Hirod ularni eshitib: - Bu men boshini kesgan Yahyodan boshqasi emas. U qayta tirilib kelgan, - deb qattiq turdi. **17** Hirod o`z ukasi Filipning xotini Hirodiyaga uylangani sababli Yahyoni qo`lga olib, zindonga qamatib qo`ygan edi. **18** Chunki Yahyo Hirodga: “Ukangning xotinini olish sen uchun ravo emas”, - deb yurgan edi. **19** Hirodiyaning o`zi Yahyodan achchiqlanib, uni o`ldirmoqchi bo`lgan, ammo bu niyatiga yeta olmayotgan edi. **20** Hirod esa Yahyoning solih va muqaddas kishi ekanini bilib, undan qo`rqar va uni himoya qilar edi. Uning so`zlarini maroq bilan tinglar va ko`p ishlarni uning maslahati bilan qilardi. **21** Bir kuni qulay fursat tug`ilib qoldi. Hirod o`zining tug`ilgan kuni munosabati bilan o`z mansabdorlari, mingboshilari va Jalila yurtining og`alariga ziyofat berdi. **22** Hirodiyaning qizi kirib, raqs tushdi va Hirod bilan ulfatlarining ko`nglini topdi. Podshoh qizga: - Nima istasang, tila, men senga beraman, - dedi. **23** Unga hatto qasam ichib: - Mendan nima so`rasang, beraman, podshohligimning yarmigacha bo`lsa ham, beraman, - dedi. **24** Qiz chiqib onasidan so`radi: - Nimani so`ray? - Yahyo payg`ambarning boshini so`ra! - dedi onasi. **25** Qiz shu onda podshoh huzuriga yugurib borib: - Menga hoziroq laganda Yahyo payg`ambarning boshini olib berishingizni so`rayman, - dedi. **26** Podshoh juda xafa bo`ldi. Lekin qasam ichganligi tufayli va mehmonlar xotiri uchun qizning iltimosini rad etishni istamadi. **27** U shu ondayoq jallodni yuborib, Yahyoning boshini keltirishni buyurdi. **28** Jallod zindonga borib, Yahyoning boshini tanidan judo qildi va laganga solib, qizga olib berdi;

qiz esa onasiga topshirdi. **29** Yahyoning shogirdlari yuz bergan hodisani eshitib, uning jasadini olgani borishdi va uni dafn etishdi.

### Isoning 5000 kishini to`ydirishi

**30** Havoriylar Isoning huzuriga to`planib, qanday ishlar qilishganini, xalqqa nimalar o`rgatishganini birma-bir aytib berdilar. **31** Iso ularga: - Kelinglar, bir o`zimiz biron xilvat joyga boraylik, bir oz dam olinglar, - dedi. Chunki kelib-ketuvchilar ko`pligidan ularning ovqat yeyishga ham vaqti yo`q edi. **32** Iso bilan shogirdlari alohida qayiqqa tushib, xilvat joyga jo`nab ketishdi. **33** Lekin xalq ularning ketayotganini ko`rdi, ko`pchilik tanib qoldi. Shunda hamma shaharlardan piyoda yo`lga tushishdi, Iso bilan shogirdlari borayotgan joyga yugurib borib, ulardan oldin yetib kelishdi. **34** Iso qayiqdan chiqqanda, shuncha xaloyiqni ko`rib, ularga achindi. Chunki ular cho`ponsiz qo`ylarga o`xshardi. Iso ularga ko`p narsalarni o`rgatardi. **35** Ancha vaqt o`tgandan so`ng, shogirdlar Isoning yoniga kelib: - Bu yer yovon ekan, endi vaqt kech bo`lib qoldi. **36** Xalqni qo`yib yubor, atrofdagi qishloq va ovullarga borib o`zlariga non sotib olishsin, yeydigan hech narsalari yo`q, - deyishdi. **37** Iso ularga javoban: - Sizlar ularga ovqat beringlar! - dedi. - Nahotki biz ikki yuz kumush tangaga non sotib olib kelib, xalqqa yedirsak? - deb so`rashdi Undan. **38** Iso dedi: - Qancha nonlaringiz bor? Borib ko`ringlar. Ular bilib kelgach: - Beshta non, ikkita baliq bor ekan, - deyishdi. **39** Iso xaloyiqni to`p-to`p qilib yashil o`t ustida o`tqazishni shogirdlariga buyurdi. **40** Xalq yuztadan va elliktadan to`da-to`da bo`lib o`tirdi. **41** Iso beshta non bilan ikkita baliqni oldi va osmonga qarab shukrona duosini o`qidi. Nonlarni sindirib, xaloyiqqa tarqatish uchun shogirdlariga berdi. Ikkita baliqni ham hammaga taqsimlab berdi. **42** Ularning hammalari yeb to`ydi. **43** So`ng ortib qolgan non burdalari va baliqlarni terib olishdi, to`la o`n ikki savat chiqdi. **44** Non yeganlar besh mingga yaqin erkak edi.

### Isoning suv ustida yurishi

**45** Iso vaqt o`tkazmay, shogirdlarini qayiqqa tushirib, narigi tomondagi Baytsayda shahriga suzib o`tishga majbur qildi. Ungacha O`zi odamlarga

ruxsat beradigan bo`ldi. **46** Xalqni jo`natib yuborganidan keyin, Iso ibodat qilish uchun toqqa chiqdi. **47** Kech kirgach, qayiq ko`lning o`rtasida edi, Iso esa yolg`iz O`zi quruqlikda edi. **48** Shamol shogirdlarga qarshi esar edi. Iso ular qayiqni haydashga qiynalayotganini ko`rdi. Subhidam chog`i Iso ko`l ustida yurgan cha shogirdlari tomon keldi-da, yonlaridan o`tguday bo`ldi. **49** Shogirdlar esa ko`l yuzida yurgan Isoni ko`rib, allaqanday sharpa deb o`ylab, qichqirib yuborishdi. **50** Hammasi ham Uni ko`rib, yuraklari orqasiga tortib ketdi. Ammo Iso o`sha zahoti gapga kirib: - Dadil bo`linglar! Bu Men, qo`rqmanglar! - dedi. **51** Iso shogirdlari yoniga, qayiqqa tushishi bilan shamol tindi. Shogirdlar haddan tashqari taajjublanib, lol bo`lib qolishdi. **52** Ular non bilan bo`lgan mo`jizadan ham ibrat olmagan edilar, aqlari yetmas edi. **53** Ko`ldan suzib o`tib, Genisaret qirg`og`iga kelib to`xtadilar. **54** Qayiqdan chiqishlari bilanoq xalq Isoni tanib qoldi. **55** Tezda butun o`sha yurtga xabar yelib bordi. Isoning qayerdaligini eshitganlar esa o`z kasallarini to`shakda ko`tarib borib, Isoni qidirib topguncha yurtni aylanadigan bo`lishdi. **56** Iso qayerga bormasin - qishloqlargami, shaharlargami, ovullargami - odamlar kasallarni ochiq maydonlarga qo`yar, aqalli kiyimining bir chekkasiga tegish uchun Undan iltimos qilishardi. Unga qo`l tegizganlar esa shifo topardi.

## Diniy urf-odatlar va Xudoning amri

**7:1** Farziylar va Quddusdan kelgan ayrim ulamolar Isoning yoniga to`plandilar. **2** Ular Iso shogirdlarining ba`zilari harom, ya`ni yuvilmagan qo`llari bilan non yeyayotganlarini ko`rib, ta`na qildilar. **3** Sababki, farziylar va umuman yahudiylar ota-bobolarining urf-odatini saqlab, qo`llarini yaxshilab yuvmay hech ovqat yemaydilar. **4** Bozordan qaytganlarida ham yuvinmay ovqat yemaydilar. Shuningdek, kosa, tovoq, qozon, kursi yuvish bilan bog`liq ko`pgina udumlarga rioya qiladilar. **5** Shunday qilib, farziylar va ulamolar Isodan: - Sening shogirdlaring nega ota-bobolar urf-odatini saqlamaydilar? Nima uchun yuvilmagan qo`llari bilan non yeyishadi? - deb so`radilar. **6** Iso ularga shunday javob berdi: - Isha yo` payg`ambarning karomati siz ikkiyuzlamachilarga juda to`g`ri keladi, mana uning kitobida Xudo nima degan: "Bu xalq Meni hurmatlar tilida, Lekin dili esa Mendan uzoqdur. **7** Ular Menga behudaga o`qir

sanolar, Insonlar amru ta'limin farz deb". **8** Sizlar-ku qozon-tovoq chayish bilan bog`liq va boshqa yana ko`p udumlarga rioya qilib, Xudoning amrini tashlaysiz-u, insonlar urf-odatini esa pesh qilasizlar. **9** Yana ularga dedi: - Siz o`z urf-odatlarinigizni deb Xudoning amrlarini bir chetga yig`ishtirib qo`yishni boplaysiz-da! **10** Muso payg`ambar aytgan edi: "Ota-onangni hurmat qil", va "Ota-onasini haqorat qilgan mutlaqo o`ldirilsin". **11** Ammo sizlar: Agar kim ota yoki onasiga: Mening senga yordamim qurbon, ya'ni Xudoga bag`ishlangan, - desa, **12** u ota yoki onasiga biron yaxshilik qilmasa ham bo`ladi, deysizlar. **13** Shu bilan siz o`zlaringiz o`rnatgan urf-odatlarinigizni deb Xudoning kalomini bekor qilasizlar. Va shunga o`xshash yana ko`p ishlarni qilasizlar.

### Insonni nima harom qiladi?

**14** Keyin Iso butun xalqni yoniga chaqirib, dedi: - Hammalaringiz Menga quloq solib, miyaga joylang! **15** Sirdan inson ichiga kiradigan hech narsa insonni harom qila olmaydi. Aksincha, inson ichidan chiqadigan narsa insonni harom qiladi. **16** Kimning eshitar qulog`i bo`lsa, eshitsin! **17** Iso xaloyiq orasidan chiqib uyga kirdi, shogirdlari Undan boyagi masal haqida so`radilar. **18** U ularga dedi: - Sizlar ham shunchalik befahmmisizlar? Sirdan insonning ichiga kiradigan hech narsa uni harom qila olmasligini anglamaysizlarmi? **19** Bu narsalar insonning qalbiga emas, qorniga kiradi va kerak joydan chiqib ketadi. Shu bilan Iso har qanday oziq-ovqatlarni halolladi. **20** U yana dedi: - Insonning ichidan chiqadigan narsalar insonni harom qiladi. **21** Chunki ichdan, ya'ni inson qalbidan yomon fikrlar, fahshu zino, qotillik, **22** o`g`rilik, tamagirlik, badniyatlik, makkorlik, nafsga berilganlik, g`ayirlik, kufr, manmanlik va nodonlik chiqadi. **23** Ana shu yomonliklarning hammasi insonning ichidan chiqib, uni harom qiladi.

### G`ayriyahudiy ayolning ishonchi

**24** Iso u yerdan chiqib, Tir va Sido`n taraflariga keldi. Bir uyga kirdi va buni hech kim bilib qolishini istamas edi, lekin yashirina olmadi. **25** Qizalog`ini yovuz ruh chalgan bir ayol Iso haqida eshitib qoldi-da, tez kelib Uning oyog`iga yiqildi. **26** Bu ayol Suriyaning Finikiya muzofotida



tug`ilgan bo`lib, yahudiy emas edi. Qizidan jinni quvib chiqarishni Isodan iltimos qildi. **27** Biroq Iso unga: - Avval bolalar to`ysin, bolalardan nonni olib itlarga tashlash yaxshi emas, - dedi. **28** Ayol: - Xuddi shunday, Hazrat, lekin itlar ham bolalar dasturxonidan to`kilgan ushoqlarni terib yeydi-ku, - deb javob berdi. **29** Iso unga: - Bor, mana shu gaping uchun qizingdan jin chiqib ketdi, - dedi. **30** Ayol borib uyiga kelganda, qizini jindan qutulib, to`shakda yotgan holda ko`rdi.

### Isoning kar-soqovni tuzatishi

**31** Iso Tir va Sido`n chegarasidan jo`nab, O`nkent viloyatidan o`tib, yana Jalila ko`li bo`yiga keldi. **32** Isoning oldiga bir kar-soqovni keltirib, unga qo`l tegizishini so`rashdi. **33** Iso u odamni xaloyiq orasidan olib chiqib bir chetga tortdi-da, barmoqlarini uning quloqlariga tiqib qo`ydi va tupurib tiliga tegizdi. **34** Keyin osmonga qarab, chuqur xo`rsindi-da, unga: - Effatah! - dedi. Bu so`zning tarjimasi “Ochil!” demakdir. **35** Shu onda u odamning quloqlari ochilib, tilga kirdi, ravongina gapira boshladi. **36** Iso u yerdagilarga, buni hech kimga aytmanglar, deb buyurdi. Biroq U odamlarga qancha man etsa ham, ular yanada ko`proq oshkor etishardi. **37** Ular haddan tashqari tong qolib: “U hamma narsani yaxshi qiladi, karlarni eshitadigan, soqovlarni gapiradigan qiladi”, - deyishardi.

### Isoning 4000 kishini to`ydirishi

**8:1** O`sha kunlarda yana ko`pdan-ko`p odam yig`ilgan edi. Yeyish uchun hech narsalari qolmaganda, Iso shogirdlarini yoniga chaqirib dedi: **2** - Xalqqa achinyapman. Uch kundan beri Mening oldimda turishibdi va yeydigan hech narsalari yo`q. **3** Agar ularni uylariga ovqat bermay jo`natib yuborsam, yo`lda holdan toyadilar, chunki ba`zilari olis yerlardan kelishgan. **4** Shogirdlari bunga javoban: - Ularni to`ydirish uchun bu sahroda kim qayerdan non topa olardi? - deyishdi. **5** - Qancha nonlaringiz bor? - so`radi Iso. - Yettita, - dedi shogirdlar. **6** Shundan keyin Iso xalqqa yerga o`tirishni buyurdi. Yettita nonni olib, shukrona duosini o`qib sindirdi va tarqatish uchun shogirdlariga berdi. Shogirdlar xalqqa tarqatishdi. **7** Ularda bir oz baliq ham bor edi. Iso duo o`qib, bularni ham

tarqatishni buyurdi. **8** Xalq yeb to`ydi. Ortib qolgan burdalarni terishganda, yetti savat chiqdi. **9** U yerda to`rt mingga yaqin odam bor edi. Iso xaloyiqqa javob berdi **10** va tezda shogirdlari bilan qayiqqa tushib, Dalmanuta yurtiga suzib o`tdi.

### Isodan dalil so`rash

**11** Farziylar Isoning oldiga borib, U bilan bahslasha boshladilar. Uni sinab ko`rish maqsadida ko`kdan dalil ko`rsatishini so`radilar. **12** Lekin Iso chuqur xo`rsindi: - Nega bu avlod dalilni talab qilyapti? Sizlarga aytib qo`yay, bu avlodga hech qanday dalil ko`rsatilmaydi! **13** Shunday dedi-yu, ularni qoldirib, yana qayiqqa tushdi va narigi qirg`oqqa suzib o`tdi.

### Ongsiz shogirdlarni koyish

**14** Shogirdlar o`zlari bilan non olishni unutibdilar. Qayiqda bittagina nondan boshqa narsa yo`q edi. **15** Shu orada Iso shogirdlarini ogohlantirib: - Menga qaranglar, farziylarning va Hironing xamirturushidan ehtiyot bo`linglar! - dedi. **16** Ular o`zlaricha: "Buni non olmaganimiz uchun aytdi, chog`i", - deb fikr yuritishdi. **17** Iso buni bilib qolib, ularga dedi: - Nega sizlar, nonimiz yo`q, deb qayg`uryapsizlar? Hali ham tushunmayapsizlarmi, anglamayapsizlarmi? Hali ham yuragingiz so`qirmi? **18** Nahotki ko`zlaringiz bo`lib, ko`rmaysizlar, quloqlaringiz bo`lib, eshitmaysizlar? Esingizda yo`qmi? **19** Men beshta nonni sindirib, besh ming kishiga bo`lib berganimda, sizlar non burdalaridan necha savat terib oldinglar? - O`n ikki savat, - dedi ular. **20** - Men yettita nonni sindirib, to`rt ming kishiga bo`lib berganimda, burdalaridan necha savat terib oldinglar? - Yetti savat, - deyishdi. **21** - Hali ham anglamadinglarmi? - dedi ularga Iso.

### Isoning ko`rni sog`aytirishi

**22** Iso Baytsayda qishlog`iga keldi. Uning oldiga bir ko`rni olib kelib, unga qo`l tegizishini so`rashdi. **23** Iso ko`rning qo`lidan ushlab, qishloq tashqarisiga olib chiqdi. Ko`zlariga tupurib, qo`llarini uning boshiga qo`ydi-da: - Biron narsa ko`ryapsanmi? - deb so`radi. **24** Ko`r boshini

ko`tarib: - Odamlarni ko`ryapman, lekin ular menga yurayotgan daraxtlarday tuyulmoqdalar, - dedi. **25** Shundan keyin Iso qo`llarini yana ko`rning ko`zlariga tegizib, unga bir qarashni buyurdi. U ko`zlarini ochib qarasa, sog`ayib qolgan, hamma narsani aniq ko`rayotgan edi. **26** Iso uni uyiga jo`natarkan: - Qishloqqa kirma, qishloqda hech kimga buni aytma, - dedi.

### Butrusning Masihni tan olishi

**27** Iso o`z shogirdlari bilan Filip Kesariyasiga mansub qishloqlarga ketdi. Yo`lda U shogirdlaridan: - Odamlar Meni kim deb hisoblaydilar? - deb so`radi. **28** Shogirdlar dedi: - Ba`zilari Yahyo payg`ambar deb, boshqalari Ilyos payg`ambar deb, yana birlari esa o`tgan payg`ambarlardan biri deb hisoblaydilar. **29** Iso ulardan so`radi: - Sizlar-chi, Meni kim deb hisoblaysizlar? Butrus Unga javob berib: - Sen Masihsan, - dedi. **30** Bundan so`ng Iso, Men haqimda hech kimga gapirmanglar, deb shogirdlariga qat`iy buyurdi.

### Iso O`z o`limi haqida

**31** Inson O`g`li ko`p azob chekishi, oqsoqollar, oliy ruhoniylar va ulamolar tomonidan rad qilinib, o`ldirilishi, uchinchi kuni esa qayta tirilishi kerak, deb Iso shogirdlariga uqtira boshladi. **32** Bu haqda ochiqdan-ochiq gapirar edi. Shunda Butrus Isoni chetga tortib, fikridan aynitishga harakat qildi. **33** Lekin Iso o`girilib shogirdlarini ko`rdi-da, Butrusga ta`na qildi: - Yo`qol ko`zimdan, shayton! Sen Xudoning ishlarini emas, inson ishlarini o`ylayapsan, - dedi. **34** Shundan so`ng Iso xalq bilan shogirdlarini oldiga chaqirib dedi: - Kimda-kim Menga ergashishni istasa, o`zidan kechsin va o`z xochini ko`tarib, orqamdan yursin. **35** Kim jonini ayamoqchi bo`lsa, jonini yo`qotadi. Kim Men va Injil uchun jonini bersa, jonini qutqaradi. **36** Agar inson butun dunyoni egallab olsa-yu, o`z joniga zarar keltirsa, bundan unga nima foyda? **37** Inson o`z joni evaziga qanday to`lov topib berarkan? **38** Kimki bu vafosizu gunohkor nasl orasida Mendan va Mening so`zlarimdan uyalar ekan, Inson O`g`li ham muqaddas farishtalar bilan birga Otasining ulug`vorligida kelganda, undan uyaladi.

## Iso qiyofasining o`zgarishi

**9:1** Iso ularga yana dedi: - Sizlarga chinini aytayin, bu yerda turganlardan ba zilar borki, ular Xudo Shohligi qudrat bilan kelishini ko`rmaguncha, o`lim ko`rmaydilar. **2** Oradan olti kun o`tgach, Iso Butrus, Yoqub va Yuhannoni alohida baland bir toqqa olib chiqdi. U yerda, ularning ko`zi oldida Isoning qiyofasi o`zgarib ketdi. **3** Uning kiyimlari yarqirab, qorday oppoq tusga kirdiki, yer yuzida hech bir kir yuvuvchi bunday oqartira olmas edi. **4** To`satdan shogirdlarga Ilyos bilan Muso payg`ambarlar ko`rindi. Ular Iso bilan suhbatlashayotgan edilar. **5** Shunda Butrus Isoga: - Ustoz! Bizlar uchun bu yerda bo`lish juda yoqyapti. Uchta chayla yasaylik, birisi Senga, birisi Musoga, birisi Ilyosga, - dedi. **6** Lekin u nima deyishini bilmas edi, ularni juda vahima bosgan edi. **7** Shu paytda bir bulut paydo bo`lib, ularga soya soldi. Bulut ichidan: - Bu Mening sevikli O`g`limdir, Unga quloq solinglar! - degan sado keldi. **8** Birdaniga shogirdlar atroflariga qarab, yolg`iz Isodan boshqa hech kimni yonlarida ko`rishmadi. **9** Tog`dan tushayotganlarida Iso ularga: - Inson O`g`li o`lib tirilmaguncha, bu ko`rganlaringni hech kimga aytmanglar, - deb buyurdi. **10** Ular esa bu so`zni diliga tugib olib, o`lib tirilish o`zi nima ekan, deb o`zaro fikrlashar edilar. **11** Isodan so`radilar: - Nega ulamolar, qiyomatdan oldin Ilyos payg`ambar kelishi kerak, deb aytadilar? **12** Iso ularga javoban dedi: - To`g`ri, avvalo Ilyos payg`ambar kelib, hamma narsani yo`lga qo`yadi. Xo`sh, qanday qilib Inson O`g`li ko`p azob chekishi va xo`rlanishi kerak, degan oyatlar ham bor? **13** Biroq Men sizlarga shuni aytaman: Ilyos allaqachon keldi va, u haqida yozilganidek, u bilan o`z bilganlaricha qildilar.

## Jin urgan bolani sog`aytirish

**14** Iso qolgan shogirdlari yoniga qaytib kelgach, ularning atrofida ko`p xaloyiqni va ular bilan bahslashayotgan ulamolarni ko`rdi. **15** Xaloyiq Isoni ko`rishi bilanoq hammasi ajablanib ketishdi. Uning oldiga yugurib borib, salom berishdi. **16** Iso ulamolardan: - Ular bilan nimalar to`g`risida bahslashyapsizlar? - deb so`radi. **17** Xaloyiq orasidan kimdir javob berdi: - Ustoz! Men Sening oldingga o`g`limni olib keldim, mana uni tilsiz ruh

urgan. **18** Yovuz ruh uni qayerda tutib olsa, yerga yiqitib sudraydi. Uning og`zidan ko`pik chiqadi, tishlarini g`ichirlatib qotib qoladi. Sening shogirdlaringga, ruhni quvib chiqaringlar, dedim, lekin ular eplasholmadi. **19** Iso bunga javoban: - Ey imonsiz avlod! Qachongacha sizlar bilan bo`laman? Qachongacha sizlarga chidayman? Oldinga keltiringlar bolani! - dedi. **20** Bolani Isoning oldiga keltirishdi. Yovuz ruh Isoni ko`rishi bilanoq, bolani qaltiratib tashladi. Bola yerga yiqildi-yu, og`zidan ko`pik oqizgancha ag`nab yotaverdi. **21** Iso uning otasiga qarab: - U bu ahvolga tushganiga necha vaqt bo`ldi? - deb so`radi. - Bolaligidan shunaqa. **22** Ruh uni halok qilmoqchi bo`lib ko`p martaba olovga, suvga tashladi. Agar qo`lingdan kelsa, bizlarga rahm qil, yordam bergin, - dedi. **23** Iso unga: - Qo`limdan kelsami? To`g`risi, sen bir oz bo`lsa ham ishona olsang edi! E fiqodli kishi hamma imkonga ega bo`ladi, - dedi. **24** Shu on bolaning otasi ko`z yoshi bilan hayqirib: - E fiqod qilaman, Rabbiiy! E fiqodsizligimdan qutqargin! - dedi. **25** Xalq yugurishib yig`ilayotganini ko`rgan Iso yovuz ruhga do`q qilib: - Ey soqov va kar ruh, Men senga buyuraman: boladan chiq va qaytib unga kirma! - dedi. **26** Shunda ruh qattiq qichqirib yubordi-da, bolani shiddat bilan qaltiratib undan chiqib ketdi. Bola o`likday bo`lib qolganidan, ko`plar uni o`ldi, deb aytishdi. **27** Lekin Iso uni qo`lidan ushlab ko`tardi, bola oyoqqa turdi. **28** Iso uyga kirdi. U yolg`iz ekan, shogirdlari Undan: - Nega biz jinni quvib chiqarolmadik? - deb so`radilar. **29** Iso ularga dedi: - Bu toifa jinlarni ibodatdan boshqa yo`l bilan quvib bo`lmaydi.

## Ikkinchi marta Iso O`z o`limi haqida

**30** Ular u yerdan jo`nab, Jalila yurti orqali yurib o`tdilar. Iso esa buni hech kim bilib qolishini istamas edi. **31** U shogirdlariga ta`lim berib, shunday dedi: - Inson O`g`li odamlar qo`liga tutib beriladi. Uni o`ldirishadi, o`ldirishgandan uch kun keyin esa U qayta tiriladi. **32** Shogirdlar esa bu so`zlarni tushunmasalar-da, ammo Undan so`rashga ham botina olmadilar.

## Eng katta kim?

**33** Iso Kafarnahum shahriga keldi. Uyda bo`lganda, shogirdlaridan so`radi: - Yo`lda ketayotganingizda nimalar haqida bahslashdinglar? **34** Ular indamadilar, yo`lda ular kim eng katta deb bahslashgan edilar. **35** Iso o`tirib, o`n ikki shogirdini yoniga chaqirdi: - Kim birinchi bo`lishni istasa, hammaning oxirida tursin va hammaga xizmatkor bo`lsin, - dedi. **36** So`ngra bir bolani olib, uni o`rtalarida turg`izib qo`ydi va bolani quchoqlaganicha, shogirdlariga dedi: **37** - Kim shunday bolalardan birini Mening nomimdan qabul qilsa, u Meni qabul qilgan bo`ladi. Kim Meni qabul qilsa, u Meni emas, balki Meni Yuborganni qabul qilgan bo`ladi.

## Masihga shogird bo`lish haqida

**38** Yuhanno Isoga: - Ustoz! Sening noming bilan jin quvib chiqarayotgan bir odamni ko`rib qoldik. U biz bilan yurmayapti, deb unga buni man qildik, - dedi. **39** Iso shunday dedi: - Man qilmang! Chunki Mening nomim bilan mo`jiza yaratgan hech kim darrov Meni yomonlay olmaydi. **40** Kim sizga qarshi bo`lmasa, u siz tomonda. **41** Kim sizga Mening nomim uchun, Masih ummati bo`lganingiz uchun bir piyola suvgina ichirsa ham, sizlarga chindan aytamanki, u o`z mukofotidan quruq qolmas.

## Yo`ldan ozish va ozdirish haqida

**42** “Kim Menga ishongan shu kichiklardan birontasini yo`ldan ozdirsa, uning bo`yniga bir tegirmon toshini osib dengizga tashlanishi u uchun yaxshiroq bo`lar edi. **43** Agar qo`ling seni yo`ldan ozdirsa, uni chopib tashla. Ikki qo`ling bilan so`nmas do`zax o`tiga yo`liqqaningdan ko`ra, mayib bo`lib abadiy hayotga erishganing yaxshiroqdir. **44** Do`zaxilarning qurti ham o`lmas, o`ti ham so`nmas. **45** Agar oyog`ing seni yo`ldan ozdirsa, uni chopib tashla. Ikki oyog`ing bilan so`nmas do`zax o`tiga tashlangandan ko`ra, cho`loq bo`lib abadiy hayotga erishganing yaxshiroqdir. **46** Do`zaxilarning qurti ham o`lmas, o`ti ham so`nmas. **47** Agar ko`zing seni yo`ldan ozdirsa, uni o`yib tashla. Ikki ko`zing bilan o`tli do`zaxga tashlangandan ko`ra, bir ko`z bilan Xudoning Shohligiga kirganing yaxshiroqdir. **48** Do`zaxilarning qurti ham o`lmas, o`ti ham

so`nmas. **49** Hamma ham o`tda poklanadi, har bir qurbonlik tuzga bulanadi. **50** Tuz - yaxshi narsa. Lekin tuz o`z sho`rligini yo`qotsa, uni yana nima bilan sho`r qilasizlar? Gapingiz tuzli bo`lsin, o`zaro tinch-totuv yashanglar”.

## Nikoh va ajralish haqida

**10:1** Iso u yerdan ketib, Yahudiya o`lkasiga va O`rdun daryosining naryog`iga keldi. Uning atrofiga yana ko`p xalq yig`ildi, U O`z odati bo`yicha odamlarga yana ta`lim bera boshladi. **2** Ba`zi farziylar Uni sinab ko`rmoq niyatida yaqinlashib: - Er o`z xotinidan ajralishiga ijozat beriladimi? - deb so`radilar. **3** Iso bunga javoban: - Muso sizlarga nimani buyurgan edi? - deb so`radi. **4** - Muso erkak taloq xatini yozib xotinidan ajralishiga ijozat bergan edi, - deyishdi. **5** Iso ularga javob berib dedi: - Bag`ri toshligingiz uchun Muso sizlarga bu amrni yozib qoldirgan. **6** Aslida Xudo dunyoni yaratishidanoq odamlarni erkak va xotin qilib yaratdi. **7** Tavrotda yozilishicha: “Shuning uchun er kishi ota-onasini qoldirib, **8** o`z xotiniga yopishib qoladi va ikkovi bir tan bo`ladi”. Bunga ko`ra, ular endi ikki emas, balki bir tan hisoblanadi. **9** Xudo birga qo`shganni bandasi ajratmasin. **10** Uyga kelganlarida, shogirdlar yana shu haqda Isodan so`radilar. **11** U ularga dedi: - Kim o`z xotini bilan ajralib boshqasiga uylansa, u xotiniga nisbatan zino qilgan bo`ladi. **12** Xotin ham agar o`z eridan ajralib boshqasiga tegsa, zino qilgan bo`ladi.

## Isoning bolalarni duo qilishi

**13** Ularning peshanasiga qo`lini qo`ysin, deb Isoning oldiga bolalarni keltirishardi. Shogirdlar esa yetaklab keluvchilarni koyib qo`yishdi. **14** Iso buni ko`rganda, g`azablanib dedi: - Bolalarga yo`l qo`yinglar, Mening oldimga kelishiga to`sqinlik qilmanglar! Mana, Xudoning Shohligi bundaylarnikidir. **15** Sizlarga chinini aytayin: kim Xudoning Shohligini bola kabi qabul qilmasa, unga hech kirolmaydi. **16** Keyin bolalarni quchoqlab, ularning peshanalarini silab duo qildi.

## Boylik va abadiy hayot

**17** Iso yo`lga chiqayotganda, kimdir yugurib kelib, Uning oldida tiz cho`kdi-da: - Valine ímat Ustozim! Abadiy hayot nasib bo`lmog`i uchun nima qilishim kerak? - deb so`radi. **18** Iso unga dedi: - Nega Meni valine ímat deysan? Birgina Xudodan boshqa hech kim valine ímat emas-ku. **19** Sen ilohiy amrlarni bilasan: “Zino qilma. Odam o`ldirma. O`g`rilik qilma. Soxta guvohlik berma. Birovning haqini yema. Ota-onangni hurmat qil”. **20** U kishi Isoga javob qaytarib: - Ustozim! Bularning hammasiga yoshligimdan buyon rioya qilib kelaman, - dedi. **21** Iso unga qaradi va yaxshi ko`rib qoldi. - Senga bir narsa yetishmaydi, - dedi unga. - Bor, nimaga ega bo`lsang, hammasini sotib, pulini kambag`allarga bo`lib ber. Shundagina osmonda xazinang bo`ladi. Keyin kel, xochni olib orqamdan yur. **22** Bu so`zlardan boyning ta bi xira bo`ldi, chunki uning mol-mulki ko`p edi. U qayg`urib qaytib ketdi. **23** Iso atrofga ko`z yugurtirib shogirdlariga dedi: - Pul-dunyosi borlarning Xudo Shohligiga kirishlari naqadar qiyin! **24** Shogirdlar bu so`zlarni eshitib, aqllari shoshdi. Iso esa qayta boshdan so`z oldi: - Bolalarim, boylikka umid bog`laganlar Xudo Shohligiga kirishga qanchalik qiynaladi! **25** Boy odamning Xudo Shohligiga kirishidan ko`ra, tuyaning igna teshigidan o`tishi osondir. **26** Shogirdlar haddan tashqari ajablanib o`zlaricha: - Unday bo`lsa, kim najot topa olarkan? - deyishdi. **27** Iso ularga ko`zini tikib: - Odamlarga bu imkonsiz, lekin Xudoga emas. Chunki Xudo hamma imkonga egadir, - dedi. **28** Butrus so`z olib Isoga: - Mana, biz hamma narsani qoldirib, Sening orqangdan ergashib keldik, - dedi. **29** Iso bunga javoban dedi: - Sizlarga rostini aytsam, kim Men va Injil uchun uy-joy, aka-uka, opa-singil, ota-ona, xotin-bolalarini yoki yer-mulkini tashlab ketsa, **30** u hozir, bu dunyodayoq duchor bo`layotgan quvg`inlar orasida yuz hissa ortiq uy-joylar, aka-ukalar, opa-singillar, ota-onalar, bolalar va yerlarga ega bo`ladi, kelajak dunyoda esa abadiy hayotga sazovor bo`ladi. **31** Lekin ko`p birinchilar oxirgi va oxirgilar esa birinchi bo`ladilar.



## Iso uchinchi marta O`z o`limi haqida

**32** Quddusga qarab yo`l bosar edilar. Iso oldinda ketayotgan edi. Shogirdlari hayron edi, boshqalar esa qo`rqib-qo`rqib ergashayotgan edilar. Iso o`n ikki shogirdini yoniga chaqirib, yana O`zi bilan nima yuz berishi to`g`risida so`zlay boshladi: **33** - Mana, biz endi Quddusga kirib boryapmiz. U yerda Inson O`g`li oliy ruhoniylar va ulamolar qo`liga tutib beriladi. Ular Uni o`limga mahkum qilib, majusiylarga topshiradilar. **34** Ular Uni haqorat qiladilar, qamchilaydilar, yuziga tupuradilar va Uni o`ldiradilar. Lekin uch kundan so`ng U qayta tiriladi.

## Yoqub bilan Yuhanning tilagi

**35** Zabadiy o`g`illari Yoqub bilan Yuhanno Isoning oldiga kelib: - Ustoz, bizning bir tilagimiz bor, uni biz uchun bajo keltirishingni istaymiz, - deyishdi. **36** - Sizlar uchun nima qilishimni istaysizlar? - so`radi Iso. **37** Ular: - Sen ulug`vor dargohingda bo`lganingda, birimiz Sening o`ng tomoningda, boshqamiz esa chap tomoningda o`tirishimizga ruxsat bergin, - deyishdi. **38** Iso ularga: - Sizlar nima so`rayotganingizni bilmaysizlar. Men ichadigan zaqqum kosani siz icha olasizlarmi? Men botadigan qayg`u-alamlarga botib chidayolasizlarmi? - dedi. **39** Ular: - Chidayolamiz, - deb javob berishdi. Iso ularga dedi: - Sizlar-ku Men ichadigan zaqqum kosani ichib, botadigan qayg`u-alamlarimga o`zingiz ham duchor bo`lasizlar. **40** Ammo Mening o`ng va chap tomonimda o`tirishga ruxsat berish Mening ixtiyorimda emas. Bu o`rin kimlarga atalgan bo`lsa, ularniki bo`ladi. **41** Qolgan o`nala shogird buni eshitib, Yoqub bilan Yuhannodan achchiqlana ketishdi. **42** Iso esa ularni yoniga chaqirib, dedi: - Bilasizlarki, xalqlarning hokimlari hisoblanganlar hokimlik qilishdan qolishmaydilar, katta amaldorlar elga o`z hukmini o`tkazadilar. **43** Ammo sizlarning orangizda bunday bo`lmasin. Aksincha, orangizda kim katta bo`lishni istasa, sizlarga xizmatda bo`lsin. **44** Orangizda kim birinchi bo`lishni istasa, hammangizga qul bo`lsin. **45** Chunki Inson O`g`li ham O`ziga xizmat qildirish uchun emas, balki O`zi xizmat qilish va O`z jonini fido qilib, ko`plarni qutqarish uchun kelgan.

## Yerixo shahridagi ko`rning ko`zini ochish

**46** Ular Yerixo shahriga keldilar. Shahardan yana chiqib ketayotganlarida, Isoga O`z shogirdlari hamda bir talay xaloyiq ergashib borayotgan edi. Yo`l chekkasida Timeyning o`g`li ko`r Bartimey sadaqa so`rab o`tirgan edi. **47** U nosiralik Iso o`tib ketayotganini eshitib: - Ey Dovud O`g`li Iso, menga rahm qil! - deb baqira boshladi. **48** Ko`p odamlar esa uni koyib, jim bo`lishga majbur qilishdi. Lekin u: - Ey Dovud O`g`li, menga rahm qil! - deb yana qattiqroq hayqirdi. **49** Iso to`xtadi va u odamni yoniga chaqirtirdi. Ko`rni chaqirgani borganlar unga: - Qo`rqma, o`rningdan tur, U seni chaqiryapti, - deyishdi. **50** Ko`r to`nini yechib tashlab, o`rnidan turib ketdi-da, Isoning yoniga keldi. **51** Iso undan so`radi: - Sen Mendan nima istaysan? - Ustozim, ko`zlarim ko`rsin! - dedi ko`r. **52** Iso unga: - Bor, ishonching seni qutqardi, - dedi. O`sha zahoti ko`rning ko`zlari ochilib ketdi. U Isoning ortidan ergashib yo`l yurdi.

## Isoning Quddusga tantanali kirishi

**11:1** Quddusga yaqinlashib, Zaytun tog`i etagidagi Baytfagiya va Baytaniya qishloqlariga kelganlarida, Iso shogirdlaridan ikkitasini jo`nata turib dedi: **2** - Qarshingizdagi qishloqqa boringlar. U yerga kirishingiz bilanoq, hech kim minmagan, bog`lab qo`yilgan xo`tikni topinglar. Uni yechib bu yerga olib kelinglar. **3** Agar kim sizlardan: “Nima qilyapsizlar?” deb so`rab qolsa, “U Rabbimizga kerak, U uni darhol bu yerga qaytarib yuboradi”, deb javob beringlar. **4** Ular borib, ko`chada darvoza yonida bog`lab qo`yilgan xo`tikni topib, yechib olishdi. **5** U yerda turgan bir necha kishi ularga: - Nima qilyapsizlar? Nega xo`tikni yechyapsizlar? - deyishdi. **6** Shogirdlar Iso buyurganidek javob berishdi, odamlar ularni qo`yib yuborishdi. **7** Xo`tikni Isoning oldiga olib kelishdi. Uning ustiga kiyimlarini yozib qo`yishdi, Iso unga mindi. **8** Ko`pchilik o`z kiyimlarini yo`lga poyandoz qildi. Boshqalar esa dashtdagi daraxtlardan yashil novdalarni kesib, yo`lga to`shadilar. **9** Oldinda va orqada yurayotganlar: “Najot bergin! Xudovand nomidan Kelayotgan muborak! **10** Otamiz Dovudning yaqinlashgan shohlighi mangu bo`lsin! Ko`klardan najot kelsin!”? deb hayqirishar edilar. **11** Iso Quddusga kirib kelib, ma badga

bordi. Hamma narsani ko`zdan kechirib, vaqt kech bo`lib qoldi, deb o`n ikki shogirdi bilan Baytaniya qishlog`iga ketdi.

### Qurib qolgan anjir daraxti

**12** Ertasi kun Baytaniyadan chiqqanlarida, Iso och qoldi. **13** U uzoqdan barglar bilan qoplangan bir anjir daraxtini ko`rib qoldi, biron narsa topilmikini, deb unga yaqinlashdi. Daraxtning yoniga kelib, bargdan boshqa hech narsa topolmadi; chunki anjir terish vaqti emas edi. **14** Iso daraxtga qarab: - Bundan keyin abadiy sening mevangni yeguvchi bo`lmasin! - dedi. Shogirdlari ham bu gapni eshitishdi.

### Oldi-sotdi qiluvchilarni ma`baddan quvish

**15** So`ng Quddusga kelishdi. Iso ma`badga kirib, ichkarida oldi-sotdi qilayotganlarni quvib chiqara boshladi. Sarroflarning xontaxtalarini, kabutar sotuvchilarning kursilarini ag`darib yubordi. **16** Ma`bad ichida biron narsa ko`tarib o`tishga ham ruxsat bermadi. **17** Iso xalqqa ta`lim berayotib dedi: - Tavrotida: “Mening uyim barcha xalqlar ibodat qiladigan uy deb atalgay”, - deb yozilmaganmi? Sizlar esa Xudoning uyini qaroqchilar uyasiga aylantirib yuboribsizlar! **18** Ulamolar va oliy ruhoniylar buni eshitganda, Isoni halok etish chorasini topmoq payiga tushdilar. Ammo butun xalq Uning ta`limotiga mahliyo edi, shuning uchun Undan hayiqar edilar. **19** Kech bo`lgach, Iso shahardan tashqariga chiqib ketdi.

### Ibodot va ishonch haqida

**20** Erta bilan ular yana anjir daraxti yonidan o`tib qarashsaki, daraxt ildizigacha qurib qolgan ekan. **21** Butrus bo`lgan hodisani eslab, Isoga: - Ustoz! Qara, Sen la`natlagan anjir daraxti qurib qolibdi, - dedi. **22** Iso bunga javoban aytdi: **23** - Xudoga ishonchingiz bo`lsin. Sizlarga gapim shuki, agar kim bu toqqa: “Qo`porilib dengizga otil”, desa-yu, o`z qalbida shubhalanmay, aytgani bajo kelishiga qattiq ishonsa, aytgani bo`ladi. **24** Binobarin, sizlarga aytaman: siz ibodatda nimaiki so`rasangiz, olishingizga ishoninglar va erishasizlar. **25** Ibodat qilib turganingizda

birovda ginangiz bo`lsa, uni kechirib yuboring, toki osmondagi Otangiz ham sizlarning gunohlaringizni kechirsin. **26** Agar sizlar boshqalarning ayb-gunohlarini kechirmasangizlar, osmondagi Otangiz ham sizlarni kechirmaydi.

### Isoning vakolati haqida savol

**27** Ular yana Quddusga keldilar. Iso ma badda aylanib yurgan edi, oliy ruhoniylar, ulamolar va oqsoqollar Uning oldiga kelib **28** so`radilar: - Sen bu mo`jizalarni qanday kuch bilan qilyapsan? Bularni qilish uchun Senga kim vakolat bergan? **29** Iso ularga shunday javob berdi: - Men sizlarga bir savol beray. Menga javob bersangizlar, Men ham bu ishlarni qanday vakolat bilan qilayotganimni sizlarga aytaman. **30** Yahyo payg`ambar xalqni suvda tavba qildirish uchun Xudodan vakolat olganmidi, yoki insondanmi? Javob beringlar Menga. **31** Ular o`zlaricha mulohaza yurita boshlashdi: “Agar Xudodan desak, U: Nega Yahyoga ishonmadingizlar? - deydi. **32** Ammo insondan desak-chi?” Vaholanki, ular xalqdan qo`rqardilar, chunki hammalari Yahyoni haqiqiy payg`ambar deb hisoblardi. **33** Xullas, ular Isoga javoban: - Bilmaymiz, - deyishdi. Iso ularga: - U holda Men ham qanday vakolat bilan bu ishlarni qilayotganimni sizlarga aytmayman, - deb javob berdi.

### Yovuz bog`bonlar haqida masal

**12:1** Iso xalqqa masallar orqali so`zlay boshladi: “Bir odam uzumzor barpo qilibdi. Atrof-tevaragini panjara bilan o`rab, uzum siqadigan iskanja qurib, qo`riqchi minorasi o`rnatibdi-da, bog`ni bog`bonlarga ijaraga berib, o`zi vaqtincha boshqa mamlakatga ketibdi. **2** Mavsumida uzumzorning hosilidan olish uchun bog`bonlarning oldiga bir xizmatkorini yuboribdi. **3** Bog`bonlar esa uni tutib urishibdi va hech narsa bermasdan qaytarib yuborishibdi. **4** Bog` egasi yana boshqa bir xizmatkorini ularning oldiga yuboribdi. Ular esa tosh bilan uning boshini yorib, xo`rlab chiqarib yuborishibdi. **5** Yana boshqasini yo`llabdi, unisini esa o`ldirishibdi. Boshqa bir qancha xizmatkorini yuboraveribdi, ammo bog`bonlar ularning ba`zisini urib, ba`zisini o`ldirishibdi. **6** Bog` egasining endi birgina odami

qolibdi, u ham bo'lsa, sevikli o'g'li ekan. U: "O'g'limni hurmat etarlar", - deb, bog'bonlar oldiga uni yuboribdi. **7** Lekin ular bir-biriga: - Bu merosxo'r-ku! Qani, uni o'ldiramiz, shunda meros bizga qoladi, - deyishibdi. **8** O'g'lini ushlab, o'ldirib, bog'dan tashqariga chiqarib tashlashibdi. **9** Endi bog' egasi nima qilar ekan? U kelib bog'bonlarni o'ldiradi, bog'ini esa boshqalarga topshiradi. **10** Nahotki sizlar shu oyatni hech o'qimagan bo'lsangiz: "Binokorlar keraksiz deb tashlagan tosh Naq binoning peshtoqidan joy oldi. **11** Bu Xudovand irodasi tufaylidir, Bizga esa ajoyibot timsolidir"". **12** Din peshvolari buni eshitib, Isoni qo'lga olishga intildilar. Chunki U bu masalni o'zlari haqida aytganini tushundilar. Biroq xalqdan qo'rqqanlaridan, Uni qoldirib ketdilar.

### Xudoning haqi Xudoga

**13** Isoni tilidan tuzoqqa ilintirish uchun Uning oldiga farziylardan va Hirod odamlaridan ba'zilarini yubordilar. **14** Ular kelib: - Ustoz, - dedilar, - biz bilamizki, Sen odilsan, biror kishiga xushomadgo'ylik qilmaysan. Odamlarga yuz-xotir qilmasdan, Xudoning yo'lini to'g'ri o'rgatasan. Seningcha, Qaysarga soliq to'lash dinga muvofiqmi, yoki yo'q? Bizlar beraylikmi, bermaylikmi? **15** Iso ularning munofiqligini bilar edi. - Nima, Meni sinab ko'rmoqchimisizlar? Menga bir dinor olib kelinglar, bir ko'rayin, - dedi. **16** Ular olib kelgach, Iso so'radi: - Bu surat va yozuv kimniki? - Qaysarniki, - dedi ular. **17** Iso ularga: - Qaysarning haqini Qaysarga, Xudoning haqini Xudoga beringlar, - dedi. Buni eshitganlar juda hayron bo'ldilar.

### Qiyomat haqida savol

**18** Bundan keyin o'liklar tirilmaydi, deb aytadigan sadduqiylar Isoning oldiga kelib, Undan so'radilar: **19** - Ey Ustoz! Muso payg'ambar bizga shunday yozib qoldirgan: "Agar kimning akasi o'lib, uning xotini qolib, ammo undan farzand qolmagan bo'lsa, unda ukasi akasining xotiniga uylanib, u uchun avlod yaratsin". **20** Xo'sh, yetti aka-uka bor ekan. Birinchisi xotin olib, nasl qoldirmay o'lib ketibdi. **21** Ikkinchisi o'sha xotinni olib, farzand ko'rmay olamdan o'tibdi. Uchinchisining boshiga

xuddi shu ko`rgilik tushibdi. **22** Shuningdek, aka-ukalarning yettovi ham o`sha xotinga uylanib, farzand ko`rmay olamdan o`tibdilar. Oxirida xotin ham qazo qilibdi. **23** Xo`sh, qiyomatda ular tirilganda, xotin qaysi birining xotini sanalar ekan? Yettovi ham unga uylangan ekanlar-ku! **24** Iso ularga shunday javob berdi: - Sizlar Muqaddas Kitobni ham, Xudoning qudratini ham bilmaysizlar, ana shu sababdan adashyapsizlar. **25** O`liklar tirilganda, na uylanadilar va na erga tegadilar, balki bamisoli osmondagi farishtalarday bo`ladilar. **26** Nahotki sizlar Musoning kitobida, yonayotgan buta to`g`risidagi oyatda Xudoning nima aytganini hech o`qimagan bo`lsangizlar? Xudo Musoga: “Men Ibrohimning Xudosi, Is`hoqning Xudosi va Yoqubning Xudosiman”, - degan va shu tariqa o`liklarning tirilishiga ishora qilgan. **27** Chunki Xudo o`liklarning emas, tiriklarning Xudosidir. Sizlar juda ham adashyapsizlar.

### Eng muhim ilohiy amr

**28** Ulamolardan biri ularning munozara qilayotganini eshitib, Isoning ularga yaxshi javob berib turganini ko`rdi. U Isoning oldiga kelib: - Butun ilohiy amrlarning eng muhimi qaysi biri? - deb so`radi. **29** Iso unga javob berib dedi: - Butun amrlarning eng muhimi shu: “Tingla, ey Isroil! Rabbimiz bo`lgan Xudovand - yagona Xudovanddir. **30** Rabbing bo`lgan Xudovandni butun qalbing bilan, butun joning bilan, butun onging bilan va butun quvvating bilan sevgin”. Mana bu eng muhim amr. **31** Ikkinchisi esa undan kam emas, chunonchi: “O`zgani o`zing kabi sevgin”. Bulardan buyuk amr yo`q. **32** - Yaxshi gapirding, Ustoz, - dedi ulamo Isoga. - Xudo yagona, Undan boshqa xudo yo`q, deb to`g`ri aytding. **33** Uni butun qalb, butun ong, butun jon va butun quvvat bilan sevish, o`zgani esa o`zimizni sevganday sevish kerak. Bu - har qanday qurbon so`yish va nazr-niyoz atashdan a`lloqdir. **34** Iso uning oqilona javob berganini ko`rib: - Sen Xudoning Shohligidan uzoqda emassan, - dedi. Shundan keyin boshqa hech kim Undan so`rashga jur`at etmadi.

## Masih kimning o`g`li?

**35** Iso ma badda ta lim berayotib, savol tashladi: - Qanday qilib ulamolar Masihni Dovudning O`g`li deydilar? **36** Dovudning o`zi Muqaddas Ruh ilhomi bilan deganki: “Xudovand mening Rabbimga aytdi: Yovlaringni oyoqlaring ostiga yiqitmaganimcha, Sen Mening o`ng tomonimda o`ltirib turgin”. **37** Demak, Dovudning o`zi Masihni Rabbim deb atagan bo`lsa, qanday qilib Masih uning o`g`li bo`ladi? Ko`pchilik xalq esa Isoni ishtiyoq bilan tinglar edi.

## Soxta dindorlikka qarshi ogohlantirish

**38** Iso xalqqa nasihat qilib yana shunday dedi: - Uzun kiyimlar kiyish, xalq yig`inlarida alik olish, ibodatxonalarda hurmatli o`rinda va ziyofatlarda to`rda o`tirishni yaxshi ko`radigan ulamolardan ehtiyot bo`linglar! **40** Ular beva ayollarning uy-joylarini shilib, xo`ja ko`rsinga uzoq duo o`qiydilar. Mana shular og`irroq jazoga duchor bo`ladilar.

## Beva ayolning xayr-ehsoni

**41** Iso ma bad xazinasida qarshisida o`tirib, xalqning sadaqa qutisiga qanday pul solayotganiga qarab turar edi. Bir to`da boylar anchagina pul tashladilar. **42** Bir kambag`al beva ayol ham kelib, ikki chaqa tashladi. **43** Shunda Iso shogirdlarini yoniga chaqirib dedi: - Sizlarga chinini aytayin, bu kambag`al beva ayol qutiga pul tashlaganlarning hammasidan ham ko`proq tashladi. **44** Chunki boshqalarning barchasi o`zlarining ortiqcha pullaridan tashladilar. Ammo bu ayol o`zining tirikchilik tashvishlariga qaramasdan, bor-yo`g`ini tashladi.

## Iso oxirzamon haqida

**13:1** Iso ma baddan chiqib ketayotganda, shogirdlaridan biri: - Ustoz, qara, naqadar chiroyli toshlar, naqadar hashamatli binolar! - dedi. **2** Iso unga javob berib: - Bu hashamatli binolarni ko`ryapsanmi? Bu yerda biror-bir g`isht butun qolmaydi, hammasi vayron bo`ladi, - dedi. **3** Iso Zaytun tog`ida, ma badning ro`parasida o`tirgan vaqtda Butrus, Yoqub,

Yuhanno va Idris Undan alohida so`radilar: **4** - Bizga ayt-chi, bu aytganlaring qachon yuz beradi? Bularning amalga oshishini ko`rsatadigan belgi qanday bo`ladi? **5** Iso shogirdlariga qarab so`z boshladi: “Hech kim sizlarni yo`ldan ozdirmasligi uchun ehtiyot bo`linglar! **6** Chunki ko`p kishilar Mening nomim bilan kelib: “Men U bo`laman”, - deb ko`plarni yo`ldan ozdiradilar. **7** Siz yiroq-yaqindan urush xabarlarini eshitganda, cho`chimanglar. Garchi bular sodir bo`lishi kerak bo`lsa-da, bu hali so`nggi nihoya emas. **8** Xalq xalqqa qarshi, podshohlik podshohlikka qarshi ko`tariladi. Ayrim joylarda zilzilalar, qahatchiliklar, qo`zg`olonlar bo`ladi. Bu hodisalar esa bamisli to`lg`oqning boshidir. **9** Sizlar esa o`zingizga ehtiyot bo`linglar. Chunki sizlarni adliyaga topshirib, ibodatxonalarda uradilar. Men tufayli sizlarni hokimlar va podshohlar huzurida turg`izib qo`yadilar, sizlar esa Mening guvohlarim bo`lasizlar. **10** Chunki avvalo barcha xalqlarga Injil Xushxabari targ`ib qilinishi lozim. **11** Sizlarni topshirish uchun olib borayotganlarida, nima aytamiz, deb oldindan o`ylamanglar, qayg`urmanglar. O`sha soatda nima nasib etsa, uni aytinglar. Chunki o`shanda sizlar emas, balki Muqaddas Ruh gapiradi. **12** Aka ukasini, ota bolasini o`limga topshiradi. Bolalar o`z ota-onalariga qarshi chiqib, ularni o`ldiradilar. **13** Mening nomim tufayli hamma sizlardan nafratlanadi. Lekin oxirigacha chidagan qutuladi”.

### Buyuk musibat va Isoning olamga qaytishi

**14** “Doniel payg`ambar karomat qilib aytgan “dahshatli razolat” nomunosib joyda turganini ko`rganingizda (o`qigan o`zi tushunsin!) Yahudiyada bo`lganlar tog`larga qochishsin. **15** Tomning ustida bo`lganlar pastga tushib uyidan biron narsa olib kelish uchun uyiga kirishmasin. **16** Dalada bo`lganlar choponini olgani orqasiga qaytishmasin. **17** U kunlarda homilador va emizikli ayollarning holiga voy! **18** Qochishingiz qishga to`g`ri kelmasligi uchun ibodat qilinglar. **19** Chunki o`sha kunlarda shunday musibat bo`ladiki, Xudo dunyoni yaratganidan to hozirgacha bunday bo`lmagan va qaytib sodir bo`lmaydi. **20** Agar Rabbimiz o`sha kunlarni qisqartirmaganda edi, hech bir jonzod omon qololmas edi. Lekin U tanlagan kishilar uchungina o`sha kunlarni qisqartiradi. **21** Agar o`shanda kimdir sizlarga: “Masih mana bu yerda”, yoki: “Mana u yerda”, -



deb aytsa, ishonmanglar. **22** Chunki soxta masihlar va soxta payg`ambarlar paydo bo`lib, iloji bo`lsa, tanlanganlarni ham yo`ldan ozdirish uchun g`aroyibotlar va mo`jizalar ko`rsatadilar. **23** Sizlar esa ehtiyot bo`linglar. Mana, Men hammasini sizlarga oldindan aytib qo`ydim. **24** Ammo o`sha kunlarda, o`sha musibatdan keyin quyosh tutilib, oy xiralanadi. **25** Yulduzlar osmondan tushib, samoviy kuchlar larzaga keladi. **26** U vaqt Inson O`g`li bulutlar ichida, buyuk qudrat va shonshuhurat bilan kelayotganini ko`radilar. **27** O`shanda U farishtalarini yuborib, osmonning bir burchidan boshqa burchigacha, yerning to`rt tomonidan O`zining tanlagan kishilarini to`plab oladi”.

### Hushyor bo`lish haqida

**28** “Anjir daraxtidan ibrat olinglar: uning shoxlari ko`karib barglar chiqarayotganda, yoz yaqinlashganini bilasizlar. **29** Shunga o`xshab, bu ishlarning sodir bo`layotganini ko`rganda bilinglarki, U yaqindir, bo`sag`ada turibdi. **30** Sizlarga chinini aytayin: bu nasl o`tmassanoq, bularning hammasi sodir bo`ladi. **31** Yeru osmon bitar, lekin Mening so`zlarim bitmas. **32** O`sha kun yoki soat haqida birgina Otamdan boshqa hech kim bilmaydi; O`g`il ham, osmondagi farishtalar ham bilmaydilar. **33** Ko`z-quloq bo`lib turinglar, hushyor bo`lib ibodat qilinglar; chunki o`sha vaqt-soat qachon kelishini bilmaysizlar. **34** Bu xuddi safarga jo`nagan uy egasiga o`xshaydi. U o`z uy-ro`zg`orini xizmatkorlariga topshirib, har biriga biron vazifa berib, darvozabonga esa hushyor bo`lib turishni buyurib, jo`nab ketibdi. **35** Xuddi shunday, sizlar ham hushyor bo`lib turinglar. Chunki uy Egasi qachon kelishini - kechqurunmi, yarim tundami, xo`rozlar qichqirgandami, yoki ertalabmi - bilmaysizlar. **36** Mabodo U nogahon kelib, sizlarni g`aflat uyqusida ko`rmasin! **37** Sizlarga nima aytayotgan bo`lsam, hammaga aytganimdir: hushyor bo`lib turinglar!”

### Isoni o`ldirish rejasi

**14:1** Yahudiylar xamirturushsiz non yeydigan Fisih bayramiga ikki kun qolgan edi. Oliy ruhoniylar va ulamolar Isoni hiyla bilan tutib, o`ldirish

uchun fursat poylab turgan edilar. **2** Ular: - Bu ish faqat bayram kunlarida bo`lmasligi kerak, yana xalq g`alayon qilmasin, - deyishdi.

### Isoga sunbul moyi quygan ayol

**3** Iso Baytaniya qishlog`ida moxov Simunning uyida mehmon bo`lib o`tirgan edi, bir ayol ganchdan yasalgan idishda sof, qimmatbaho sunbul moyi olib keldi. Idishni sindirib, moyni Isoning boshiga quydi. **4** Ba`zilar bundan g`azablanib, bir-biriga: - Bu moyni bunday isrof etishning nima keragi bor edi? **5** Mana, bu moyni uch yuz kumush tangadan ham ko`proqqa sotib kambag`allarga taqsimlab berish mumkin edi-ku! - deb ayolni qattiq koyishdi. **6** - Qo`yinglar uni! - dedi Iso. - Nega ayolni xijolatda qoldiryapsizlar? U Men uchun ezgu ish qildi. **7** Kambag`allar har doim sizlar bilan birga bo`ladilar. Istagan vaqtingizda ularga ezgulik qila olasizlar. Lekin Men doim sizlar bilan birga bo`lmayman. **8** Ayol qo`lida borini berdi. U Mening tanamga xushbo`y moy surtib, hozirdan dafnga tayyorladi. **9** Sizlarga chinini aytayin: Injil Xushxabari dunyoning qaysi yerida targ`ib qilinsa, bu ayol ham eslanib, uning qilgan ishi yodga olinadi. **10** Shunda o`n ikki shogirdidan biri bo`lgan Ishqariyot Yahudo chiqib, Isoni tutib berish uchun oliy ruhoniylarning oldiga bordi. **11** Ular buni eshitib, sevindilar va Yahudoga pul berishga ahd qildilar. U esa Isoga xiyonat qilish uchun qulay payt izlay boshladi.

### Qutlug` ziyofat va Isoga xiyonat

**12** Yahudiylar xamirturushsiz non yeydigan Fisih bayramining birinchi kunida qurbon qo`zisini so`yish kerak edi. Bu kunda shogirdlar Isoga: - Fisih bayram taomini qayerda yemoqchisan? Biz borib tayyorgarchilik qilaylik, - deyishdi. **13** Iso shogirdlaridan ikkitasini yuborayotib, ularga dedi: - Shaharga boringlar, sizlarga ko`zada suv ko`tarib ketayotgan odam uchraydi; uning orqasidan boringlar. **14** U kiradigan uyning egasiga: "Ustozimiz: Shogirdlarim bilan Fisih bayram taomini yeydigan xona qayerda, deb so`rayapti", deb aytinglar. **15** U kishi sizlarga shinam, tayyorlab qo`yilgan katta boloxonani ko`rsatadi. U yerda biz uchun hozirlik ko`ringlar. **16** Shogirdlar jo`nashdi. Shaharga kirganlarida, xuddi

Isoning aytganini topdilar va Fisih bayram taomini tayyorladilar. **17** Oqshom bo'lgach, Iso o'n ikki shogirdi bilan birga u yerga keldi. **18** Ular yeb o'tirganlarida Iso: - Sizlarga chinini aytayin, Men bilan taom yeyayotgan sizlardan bir kishi Meni tutib beradi, - dedi. **19** Shogirdlar xafa bo'lib, birin-ketin: - O'sha men emasmi? - deb Undan so'ray boshladilar. Va shogirdlardan biri yana: - O'sha men emasmi? - dedi. **20** Iso ularga javoban dedi: - O'n ikki shogirdimdan biri-da, kim Men bilan birga kosaga non ivitib yesa, o'shadir. **21** To'g'ri, Inson O'g'lining taqdiri oyatda yozilganiday ketyapti. Lekin Inson O'g'lini tutib beradigan o'sha odamning holiga voy! U odamning tug'ilmagani o'zi uchun yaxshiroq bo'lar edi. **22** Ular ovqatlanayotganda, Iso nonni oldi, duo o'qib sindirdi va shogirdlariga berib: - Olinglar, yenglar, bu Mening tanamdir, - dedi. **23** Kosani ham oldi va shukrona duosini o'qib ularga uzatdi. Hammalari undan ichdilar. **24** Iso ularga dedi: - Bu ko'plar uchun to'kiladigan, Yangi Ahdni kuchga kiritadigan Mening qonimdir. **25** Sizlarga chinini aytayin: Xudoning Shohligida Men yangi sharob ichadigan kungacha uzum ne imatini boshqa ichmayman. **26** So'ng ular kuylab, Zaytun tog'i tomon ketdilar.

### Butrusning Isodan tonishi haqida karomat

**27** Iso shogirdlariga dedi: - Bu tunda hammangiz Mendan yuz o'girasizlar. Chunki Tavrotida shunday yozilgan: "Men cho'ponni jarohatlayman, Qo'ylar o'zi tarqab ketadi". **28** Biroq Men o'lib tirilganimdan keyin, sizlarni Jalilada kutaman. **29** Butrus Isoga: - Agar hamma Sendan yuz o'girsa ham, men o'girmayman! - dedi. **30** Iso unga: - Senga rostini aytsam, bugun, shu kechasiyoq, xo'roz ikki marta qichqirmasdanoq, sen Mendan uch marta tonasan, - dedi. **31** Lekin Butrus yana ta kid bilan o'zinikini tasdiqlab: - Men Sen bilan birga o'lishim kerak bo'lsa ham, Sendan aslo tonmayman, - dedi. Boshqa hamma shogirdlar ham shunday deyishdi.

## Isoning bog`dagi ibodati

**32** So`ngra Getsemaniya degan bir joyga keldilar. Iso shogirdlariga: - Men ibodat qilgunimcha, sizlar bu yerda o`tirib turinglar, - dedi. **33** Butrus, Yoqub va Yuhannoni O`zi bilan birga olgan Iso vahimaga tushdi va qattiq qayg`ura boshladi. **34** Shogirdlariga: - Mening jonim o`lim oldidaligini sezib, juda qiynalmoqda. Shu yerda qolinglar-da, sergak turinglar, - dedi. **35** Bir oz nari ketib yerga yiqildi, agar iloji bo`lsa, bu soatning alami meni chetlab o`tsin, deb ibodat qildi. **36** - Ey aziz Otam! - dedi. - Sen hamma narsaga qodirsan, bu zaqqum kosani Mening yonimdan o`tkazib yuborin. Lekin Mening istaganim emas, Sening istaganing bo`lsin. **37** Shogirdlari oldiga qaytib kelgach, ularni uxlab yotgan holda ko`rdi. Butrusga dedi: - Simun! Uxlayapsanmi? Bir soatgina ham uyg`oq o`tira olmadingmi? **38** Vasvasaga tushmaslik uchun hushyor bo`lib, ibodat qilib turinglar. Ruh tetik, tana esa zaifdir. **39** Iso yana borib, o`sha so`zlarni aytib ibodat qildi. **40** U qaytib kelib, shogirdlarini yana uxlab yotgan holda ko`rdi. Ularning ko`zlarini g`aflat bosgan edi. Unga nima deb javob berishlarini bilmas edilar. **41** Uchinchi marta borib kelib, Iso shogirdlariga dedi: - Sizlar hali ham beparvo uxlab, rohatlanib yotibsizlarmi? Bas endi, mana vaqt-soati keldi, Inson O`g`li gunohkorlar qo`liga tutib berilyapti. **42** Turinglar, ketaylik! Mana, Menga xiyonat qiluvchi yaqinlashib qoldi.

## Isoning qo`lga olinishi

**43** Iso hali gapirib turganda, o`n ikki shogirdidan biri Yahudo qo`qqisidan kelib qoldi. Uning yonida oliy ruhoniylar, ulamolar va oqsoqollar tomonidan yuborilgan, qilich va tayoq ushlagan olomon bor edi. **44** Xoin Yahudo: “Men kimni o`psam, u O`sha Kishidir. Uni ushlanglar va ehtiyot qilib olib ketinglar”, - deb ular bilan til biriktirgan edi. **45** Yahudo keliboq, Isoga yaqinlashdi-da: - Ustoz! Ustoz! - deb Uni o`pdi. **46** Shu onda odamlar Isoga dast solib, Uni ushlab olishdi. **47** Isoning yonida turganlardan biri qilichini qinidan sug`urdi-da, oliy ruhoniy qaroliga bir urib qulog`ini kesib tashladi. **48** Iso ularga dedi: - Sizlar Meni qo`lga olish uchun qaroqchiga qarshi chiqqandek qilichu tayoqlar bilan qurollanib kelibsizlar. **49** Men esa har kuni ma badda sizning orangizda edim, ta lim

berardim, sizlar-chi, Meni qo`lga olmadingizlar. Ammo zotan oyatlar bajo kelishi lozim. **50** O`shanda hamma shogirdlari Isoni tashlab, qochib ketishdi. **51** Yalang`och tanasini choyshabga o`ragan bir yigit ham Isoga ergashib borayotgan edi. Askarlar uni ushlab olganda, **52** u choyshabni tashlab, ulardan yalang`och holda qochib qutuldi.

### Iso yahudiylarning Oliy Kengashi oldida

**53** Isoni bosh oliy ruhoniyning oldiga olib keldilar. Uning yoniga hamma oliy ruhoniylar, oqsoqollar va ulamolar yig`ildilar. **54** Butrus esa Isoga uzoqdan, to oliy ruhoniyning hovlisi ichigacha ergashib kelgandi. Xizmatkorlar bilan birga olov yonida o`tirib, isindi. **55** Oliy ruhoniylar va Oliy Kengashning barcha a`zosi Isoga o`lim jazosi berish uchun Unga qarshi guvoh izlar edilar, lekin topolmas edilar. **56** Ko`p odamlar Unga qarshi soxta guvohlik berayotgan bo`lsalar-da, ammo bergan guvohliklari bir-biriga mos kelmas edi. **57** Soxta guvohlardan ba`zilari so`zga chiqib shunday der edilar: **58** - U: "Inson qo`li bilan qurilgan bu ma`badni Men buzib tashlayman-u, uch kunda inson qo`llarisiz, boshqa bir ma`badni tiklayman", - deganini eshitgan edik. **59** Lekin bu xususda ham guvohlarning bergan ma`lumotlari bir-biriga zid edi. **60** Bundan keyin bosh oliy ruhoni y o`rtaga chiqib Isodan so`radi: - Sen nega hech javob qaytarmaysan? Ularning Senga qo`ygan ayblariga nima deysan? **61** Iso esa indamadi, hech javob qaytarmadi. Bosh oliy ruhoni y yana Undan so`radi: - Muborak Xudoning O`g`li - Masih Senmisan? **62** Iso: - Men O`shaman va siz Inson O`g`lini qodir Tangrining o`ng tomonida o`tirib, osmon bulutlari bilan kelayotganini ko`rasizlar, - dedi. **63** Shundan keyin bosh oliy ruhoni y o`z kiyimlarini yirtib: - Bizlarga yana guvohlarning nima keragi bor? **64** Kufr ketganini o`zlaringiz eshitdingizlar. Bunga nima deysizlar? - dedi. Hammalari Uni o`limga loyiq deb topishdi. **65** Ba`zilar Unga tupura boshlashdi. Uning yuz-ko`zini bog`lab, mushtlaganlaricha: - Payg`ambarligingni ko`rsat-chi! - deyishardi. Xizmatkorlar ham Uni shapaloqlashardi.

## Butrusning Isodan tonishi

**66** Butrus pastdagi hovlida ekan, oliy ruhoniyning xizmatkor ayollaridan biri kelib qoldi. **67** Isinib turgan Butrusni ko`rib, unga tikilib qaradi-da: - Sen ham nosiralik Iso bilan birga eding-ku! - dedi. **68** Lekin Butrus inkor etdi: - Sen nima deyapsan o`zi, tushunmayapman, anglamayapman, - dedi-yu, boshqa yoqqa, tashqi hovliga chiqib ketdi. Shu payt xo`roz qichqirdi. **69** Xizmatkor ayol uni yana uchratib, u yerda turganlarga: - Bu ulardan biri-ku! - deb so`zlay boshladi. **70** Butrus yana inkor etdi. Bir ozdan keyin u yerda turganlar yana Butrusga gapira boshlashdi: - Haqiqatan sen ulardan birisan, jalilalixsan, lahjang juda o`xshaydi. **71** - Sizlar aytayotgan bu Odamni men tanimayman! - deb Butrus la`nat o`qib, qasam icha boshladi. **72** Naq shu payt xo`roz ikkinchi marta qichqirdi. Isoning: "Xo`roz ikki marta qichqirmasdanoq, sen Mendan uch marta tonasan", - degan so`zi Butrusning esiga tushib, yig`lay boshladi.

## Iso hokim Pilatning oldida

**15:1** Tong otar-otmas, oliy ruhoniylar, oqsoqollar va ulamolar hamda Oliy Kengashning qolgan a`zolari maslahatlashib olishdi va Isoni bog`latib, Pilatga olib borib topshirishdi. **2** Pilat Isodan: - Sen yahudiylarning Podshosimisan? - deb so`radi. - O`zing aytding, - deb javob berdi Iso. **3** Oliy ruhoniylar Uni ko`p masalada ayblayotgan edilar. **4** Pilat yana Unga: - Sen hech narsaga javob bermaysanmi? Ko`ryapsan-ku, Senga qarshi ayblar juda ko`p! - dedi. **5** Lekin Iso boshqa hech javob bermadi. Pilat bunga hayron qoldi. **6** Har bayramda Pilat xalqning iltimosiga binoan bir mahbusni ozod qilar edi. **7** O`shanda isyon vaqtida qotillik qilgan Barabba ismli bir kishi o`z sheriklari bilan qamoqda edi. **8** Xalq yangitdan qiy-chuvlashib, Pilatdan har doim qilib kelgan ishni ular uchun ado etishni so`ray boshladi. **9** Oliy ruhoniylar Isoni ko`rolmaganlaridan tutib berganliklarini bilgan Pilat: - Yahudiylarning Podshosini oldingizga chiqarib yuborishimni istaysizlarmi? - deb so`radi. **11** Oliy ruhoniylar esa, buning o`rniga yaxshisi Barabbani ozod qilishini talab qilinglar, deb xalqni qo`zg`ab qo`yishdi. **12** Pilat yana ularga xitob qildi: - Unday bo`lsa, sizlar yahudiylarning Podshosi deb atagan Kishini nima qilishimni

istaysizlar? **13** - Uni xochga mixlab qo`y! - deb qaytadan shovqin-suron ko`tarishdi. **14** Pilat so`radi: - U nima yomonlik qilibdi? - Uni xochga mixlab qo`y! - deb yana kuchliroq baqirishdi. **15** Shundan keyin Pilat xalqni mamnun qilay, deb ularning oldiga Barabbani chiqarib yubordi. Isoni esa rosa savalatgandan so`ng xochga mixlash uchun askarlarga topshirdi.

### Isoni haqorat qilish

**16** Askarlar Isoni hukumat saroyidagi mahkama binosiga olib borib, butun bo`linmani Uning boshiga to`plashdi. **17** Unga shohona to`n kiydirishdi va tikanlardan toj o`rib boshiga qo`yishdi. **18** - Yashavor, ey yahudiylarning Podshosi! - deb Uni qutlay boshlashdi. **19** Qamish bilan Uning boshiga urib, yuziga tupurishdi. Uning oldida tiz cho`kib, ta`zim qilishdi. **20** Uni shunday masxara qilganlaridan keyin, Undan shohona to`nni yechib olib, O`zining kiyimlarini kiydirishdi va Uni xochga mixlash uchun olib ketishdi.

### Isoni xochga mixlash

**21** Iskandar va Rufning otasi, kirineyalik Simun ismli bir kishi daladan kelib o`tib ketayotgan edi. Bu kishini Isoning xochini ko`tarib borishga majbur qilishdi. **22** Nihoyat Isoni “Boshsuyagi” ma`nosini beruvchi Go`lgota degan joyga olib kelishdi. **23** Unga mirra aralashtirilgan sharob berishdi, lekin U ichmadi. **24** Bundan so`ng Isoni xochga mixlab qo`yishdi. Uning kiyimlarini esa o`zaro bo`lishib, kim nima oladi, deb qur`a tashlashdi. **25** Uni xochga mixlaganlarida soat to`qqiz edi. **26** Boshi ustida “Yahudiylarning Podshohi” deb Uning aybini ko`rsatadigan yozuv bor edi. **27** Iso bilan birga ikki qaroqchini ham - birini Uning o`ng tomoniga, ikkinchisini esa chap tomoniga xochga mixlab qo`ydilar. **28** Shunday qilib, “U jinoyatchilar qatorida turdi”, degan oyat bajo bo`ldi. **29** O`tib ketayotganlar boshlarini chayqagancha Isoni haqoratlashardi: - Hey ma`badni buzib uch kun ichida tiklaydigan! **30** O`zingni O`zing qutqarib, xochdan tushib ko`r-chi! **31** Oliy ruhoniylar va ulamolar ham ularga qo`shilib, Isoni masxaralay ketishdi. Ular bir-biriga: - Boshqalarni

qutqardi, O`zini esa qutqara olmaydi! **32** Isroilning Podshosi Masih endilikda xochdan tushsin, toki biz ko`rib Unga ishonaylik! - deyishardi. Iso bilan birga xochga mixlanganlar ham Uni so`kar edilar.

### Isoning jon berishi

**33** Tush chog`i butun yerni qorong`ilik qoplab, soat uchgacha davom etdi.

**34** Soat uchda Iso baland ovoz bilan: - Elohi, Elohi, lamo shavaqtani? - deb faryod qildi. Bu so`zning tarjimasi: "Tangrim, Tangrim, nega Meni tashlab qo`yding?" - demakdir.

**35** U yerda turgan ba`zilar buni eshitib: - Qarang, U Ilyos payg`ambarni chaqiryapti-ku, - deyishdi. **36** Shunda birov yugurib borib, shimgichni sirkaga botirib, qamishning uchiga ilib qo`ydi-

da, Isoga ichirmoqchi bo`ldi. U: - To`xtanglar, ko`raylik-chi, Ilyos kelib xochdan tushirarmikan, - dedi. **37** Ammo Iso qattiq faryod qildi yu jon berdi.

**38** Ma`baddagi parda yuqoridan pastgacha yirtilib, ikkiga bo`linib ketdi. **39** Isoning qarshisida turgan yuzboshi Uning shunday qattiq faryod qilib jon berganini ko`rib: - Haqiqatan ham bu Odam Xudoning O`g`li ekan! - dedi.

**40** U yerda uzoqdan qarab turgan ayollar bor edi. Ular orasida magdalalik Maryam, kichik Yoqub bilan Yusufning onasi Maryam hamda Salomiya bor edilar. **41** Iso Jalilada ekanligida, ular Unga xizmat qilib ergashib kelgan edilar. U yerda Iso bilan birga Quddusga kelgan boshqa ko`p ayollar ham bor edi.

**42** Juma kuni kech kirishiga sal qolgan, dam olish kuniga tayyorgarlik qilish vaqti tugayotgan edi. **43** Shunda Oliy Kengashning taniqli a`zosi, Xudo Shohligiga ko`z tikib yurgan arimateyalik Yusuf jur`at etib, Pilatning huzuriga bordi va Isoning jasadini so`radi. **44** Pilat Uning darrov o`lganiga hayron bo`ldi. Yuzboshini chaqirib: - Uning o`lganiga ko`p bo`ldimi? - deb so`radi. **45** Yuzboshidan bilib olgach, jasadni Yusufga berdi. **46** Yusuf kafan sotib oldi. Isoni xochdan tushirib olib, kafanga o`radi va qoyada o`yilgan qabrga qo`ydi. Keyin qabrning og`ziga bir toshni yumalatib keltirib, qo`yib ketdi. **47** Magdalalik Maryam bilan Yusufning onasi Maryam esa Isoning qayerga ko`milganini ko`rdilar.

### Isoni dafn qilish

**42** Juma kuni kech kirishiga sal qolgan, dam olish kuniga tayyorgarlik qilish vaqti tugayotgan edi. **43** Shunda Oliy Kengashning taniqli a`zosi, Xudo Shohligiga ko`z tikib yurgan arimateyalik Yusuf jur`at etib, Pilatning huzuriga bordi va Isoning jasadini so`radi. **44** Pilat Uning darrov o`lganiga hayron bo`ldi. Yuzboshini chaqirib: - Uning o`lganiga ko`p bo`ldimi? - deb so`radi. **45** Yuzboshidan bilib olgach, jasadni Yusufga berdi. **46** Yusuf kafan sotib oldi. Isoni xochdan tushirib olib, kafanga o`radi va qoyada o`yilgan qabrga qo`ydi. Keyin qabrning og`ziga bir toshni yumalatib keltirib, qo`yib ketdi. **47** Magdalalik Maryam bilan Yusufning onasi Maryam esa Isoning qayerga ko`milganini ko`rdilar.



## Isoning tirilishi

**16:1** Shanba kungi dam olish vaqti tugagach, magdalalik Maryam, Yoqubning onasi Maryam va Salomiya borib Isoga surtish uchun atirlar sotib oldilar. **2** Yakshanba kuni juda barvaqt turib, tong otarda qabrga bordilar. **3** Ular bir-biriga: - Qabr og`zidagi toshni biz uchun kim ag`darib beradi? - deyishdi. **4** Boshlarini ko`tarib qarashsaki, tosh allaqachon ag`darilgan ekan; u juda ham katta edi. **5** Qabr ichiga kirib, o`ng tomonda o`tirgan oq kiyimli bir yigitni ko`rdilaru, cho`chidilar. **6** Yigit ularga: - Qo`rqmanglar! - dedi. - Sizlar xochga mixlangan nosiralik Isoni izlamoqdasizlar. U tirildi, U bu yerda yo`q. Mana Uning qo`yilgan joyi! **7** Endi sizlar borib Uning shogirdlariga, ayniqsa Butrusga: “U sizlarni Jalilada kutyapti; sizlarga aytganidek, Uni o`sha yerda ko`rasizlar”, - deb aytinglar. **8** Ayollar qabrdan chiqib, yugurib qochib ketdilar. Ularni qaltiroq va dahshat bosgan edi. Qo`rqanlaridan hech kimga biron narsa aytmadilar.

## Isoning shogirdlariga zohir bo`lishi

**9** Yakshanba kuni erta saharda tirilgan Iso birinchi bo`lib yetti jindan qutqargan magdalalik Maryamga ko`rindi. **10** Maryam borib, ilgari Iso bilan birga bo`lgan, endi esa motam tutib yig`layotgan kishilarga xabar yetkazdi. **11** Biroq ular Isoning tirik ekanligini va Maryam Uni ko`rganligini eshitsalar ham, ishonmadilar. **12** Shundan keyin Iso yo`lda bir qishloq tomon ketayotgan ikkita shogirdiga boshqacharoq qiyofada ko`rindi. **13** Ular esa qaytib kelib, boshqalarga xabar yetkazishdi, lekin ularga ham ishonmadilar. **14** Nihoyat, Iso O`zining yeb-ichib o`tirgan o`n bir shogirdiga zohir bo`ldi. Uni tirilgan holda ko`rgan odamlarga ishonmay, imonsiz qolganlari, diydasini qotirgani uchun ularga ta`na qildi.

## Isoning so`nggi so`zlari va osmonga ko`tarilishi

**15** Iso shogirdlariga dedi: “Butun jahon bo`ylab yuringlar va hamma tirik jonga Injil Xushxabarini targ`ib qilinglar. **16** Kim ishonib, suvda imon keltirsa, najot topadi. Ishonmagan esa mahkum bo`ladi. **17** Quyidagi alomatlar imonlilarga hamroh bo`ladi: Mening nomim bilan jinlarni quvib

chiqaradilar. Yangi tillarda soʻzlaydilar. **18** Qoʻllariga ilon olib koʻtarsalar yoki halokatli biron narsa ichsalar ham, ularga zarar yetmaydi. Bemorlarga qoʻllarini qoʻyganda, ular sogʻayib ketadilar”. **19** Rabbimiz Iso shogirdlariga ushbularni tayinlab boʻlgach, osmonga koʻtarildi va Xudoning oʻng tomoniga oʻtirdi. **20** Shogirdlar esa ketib, hamma yoqda voizlik qilib yurdilar. Rabbimiz ularga koʻmaklashar va paydo qilgan moʻjizalar orqali Oʻz kalomini tasdiqlar edi. Omin.